

**Z. Qurbonova**

**UMUMIY PSIXOLOGIYA  
fanidan**

**LABORATORIYA  
MASHG'ULOTLARI**



**Namangan - 2013**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti**

**Pedagogika va psixologiya kafedrasи**

**UMUMIY PSIXOLOGIYADAN  
LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI**

(5110900-”Pedagogika va psixologiya” bakalavriat yo’nalishi talabalari uchun)

**Tuzuvchi: katta o’qituvchi Z.QURBONOVA**

Mazkur “Umumiy psixologiya” fanidan laboratoriya mashg’ulotlari ishlanmasi 5110900-“Pedagogika va psixologiya”-bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, u DTS va fanning namunaviy dasturiga muvofiq holda tuzilgan. Unda shaxsning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sohasi, individual psixologik xususiyatlarini o’rganishga doir topshiriqlar, psixologik masalalar, psixodiagnostik test va metodikalar, olingan natijalarni tahlil qilish, ma’lumotlarni sharhlash va xulosa chiqarish usullari taqdim etilgan.

Tuzuvchi:	NamDU Pedagogika va psixologiya kafedrasи katta oqituvchisi Z.B.Qurbanova
Taqrizchilar:	psixologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Maxsudova katta o’qituvchi M.Asranboyeva

Ushbu laboratoriya mashg’ulotlari ishlanmasi NamDU O’quv-uslubiy Kengashining 2013 yil ”29” noyabrdagi ”3” sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.



21401

## KIRISH

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ini amalga oshirishdan ko'zlangan eng muhim maqsadlardan biri yuqori malakali, jahon andozalariga hamda talablariga mos keladigan, o'z sohasi bo'yicha yuqori darajada mahorat cho'qqisini zabit eta oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir.

Hozirgi vaqtida oliy ta`limni qayta qurish, uni ishlab chiqarish bilan yanada ko`proq yaqinlashtirish ishlari olib borilayotgan bir sharoitda fan va nazariyaga asoslangan bilimga, amaliy malakalarga ega bo'lgan va yangi zamonaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila olishga layoqatli mutaxassislar tayyorlash yanada dolzarb vazifa ekanligini hayotning o'zi tasdiqlab turibdi.

“Umumiy psixologiya” fanidan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar talabalarning o'z-o'zini tarbiyalab borishi va mustaqil bilim olishini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarning inson shaxsi, ijtimoiy-psixologik hodisalar haqidagi xususiy qarashlari shakllanadi, shaxs psixologiyasiga, bilish jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlari, pedagogik faoliyat psixologiyasiga oid qonuniyatlarni mustaqil o'rganadilar, amaliy ko'nikma va malaka hosil qildilar. Psixologik adabiyotlarda aks ettirilgan nazariy masalalar, talabalarning o'tilgan mavzularga oid bilimlari, mustaqil ishlari, tayyorlagan referatlari hamkorlikda muhokama qilinadi.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar bilan psixologik qonuniyatlarni aniqlashga doir o'tkazilgan tajribalar orqali ularning psixik hodisalarga tegishli nazariy bilim va tushunchalari amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Mazkur uslubiy qo'llanma pedagoglar va talabalarga «Umumiy psixologiya» fanidan seminar va tajriba mashg'ulotlarini samarali tashkil etish borasidagi ishlarni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishga yordam berish maqsadida tayyorlangan.

## **1-laboratoriya mashg'uloti**

- Mavzu:** Psixika haqida tushuncha va uning evolyutsiyasi
- Maqsad:** Psixikaning filogenetik taraqqiyoti haqida bilim va tasavvurlarni shakllantirish
- Jihoz:** Ekspert varaqlari

### **Ekspert varag'i №1**

**1 – Topshiriq** Quyidagi hukmlardan qaysi biri psixikaning tabiatini idealistik nuqtai nazardan va qaysi biri materialistik qarashda tushuntiradi?

- psixika o'zga alohida bir olamdir. U tashqi sabablarga bog'liq emas;
- psixika eng yuqori darajada tashkil topgan materiya ya`ni — miyaning xususiyatidir; v)
- psixikani faqat o'z-o'zini kuzatish orqali o'rghanish mumkin; g)
- psixika — ob'ektiv olamning in'ikosidir.

### **Ekspert varag'i №2**

**2 - Topshiriq.** Rossiyalik psixolog — idealist A. Y. Vvedinskiy bunday yozgan edi: «Boshqa kishilarning ruhiy hayotini idrok qilishimiz mumkin emas, chunki u har qanday tajriba o'tkazish imkoniyatidan chetdadir». Ko'rinish turibdiki, A. I. Vvedinskiy psixik hodisalarini faqat bevosita bilish mumkin, deb hisoblaydi. 1. Aytingchi, boshqa kishilarning ruhiy hayotini idrok qilishimiz mumkin emas, deb aytilgan A. I. Vvedinskiyning fikri to'g'rimi? 2. SHu bilan A. I. Vvedinskiy psixik hodisalarini bilishning qaysi usulini inkor etadi.

### **Ekspert varag'i №3**

**3 – Topshiriq.** Rossiyalik psixolog — idealist A. Y. Vvedinskiy bunday yozgan edi: «Boshqa kishilarning ruhiy hayotini idrok qilishimiz mumkin emas, chunki u har qanday tajriba o'tkazish imkoniyatidan chetdadir». Ko'rinish turibdiki, A. I. Vvedinskiy psixik hodisalarini faqat bevosita bilish mumkin, deb hisoblaydi.

- Aytingchi, boshqa kishilarning ruhiy hayotini idrok qilishimiz mumkin emas, deb aytilgan A. I. Vvedinskiyning fikri to'g'rimi?
- SHu bilan A. I. Vvedinskiy psixik hodisalarini bilishning qaysi usulini inkor etadi.

### **Ekspert varag'i №4**

**Zarur material.** Turli hayotiy omillarni ifodalagan savol va vazifalar:

1.O'tgan asrning oxirida italyan fiziologi Anjelo Mosso (1840—1910) qiziq bir tajriba o'tkazgan ekan. U maxsus tarozida tinchgina yotgan kishini muvozanatga keltirgan. Tarozida yotgan kishi aqliy masalalarni echa boshlagan edi, boshi og'irlashib muvozanat buzilgan. Aytingchi, bu hodisaning sababi nima? 2.Nemis biologi Iskyull jo'jani oyog'idan qoziqqa bog'lab qo'ygan. Jo'ja chiyillab tipirchilay boshlagan. Jo'jani ko'rmasa ham, uning chiyillagan tovushini eshitib, ona tovuq qutqarishga shoshiladi. Buni ko'rgan Ikskyull jo'janing ustiga shisha qalpoq to'ntaradi. Ona tovuq tipirchilayotgan jo'jasini ko'rishga ko'radiyu, ammo shu ondayoq tinchlanadi. Buni qanday tushunish kerak?

### **Ekspert varag'i №5**

**Zarur material.** Turli hayotiy omillarni ifodalagan savol va vazifalar:

1.Taniqli rus zoopsixolog Vladimir Aleksandrovich Venger (G-84'9—1934) hikoya qilishicha, tabiatshunoslardan biri qarag'ayning uchida joylashgan olmaxon inidan hali bu indan tashqariga chiqmagan ikkita bolasini parvarish qila boshlaydi. Olmaxonchalar bir-ikki oylik bo'lganlarida ularda juda qiziq bir harakat paydo bo'lgan. YOnq'oq keragidan ortiqcha bo'lgan kezlarda olmaxon xonani ko'zdan kechirar va xilvatroq joy iz-lashga harakat qilardi. Masalan, divanning biron oyog'i yoniga borib ortiqcha yong'oqni gilam tagiga bostirib, yoni-berini bamisolli tuproq qazigandek oldingi oyoqlari bilan tirnar va u go'yo yong'oqni berkitib qo'ygandek bo'lardi. SHundan keyin yong'oqni o'z holicha qoldirib ketar edi. Tabiiy sharoitda yong'oq mo'lko'l bo'lgan vaqtida shu turdag'i yoshi katta olmaxonlar ortiqcha yong'oqlarni erga ko'mib qur-qut to'plashi haqidagi kuzatish natijalari mavjud. Qizig'i shundaki, hali indan chiqmagan olmaxonchalar katta olmaxonlarning xatti-harakatlari takrorlaganlar. Buni qanday izohlash mumkin?

### **Ekspert varag'i №6**

Zanjirdagi itning oldiga bir parcha go'sht tashlangan. Bu go'shtni arqonning bir uchiga bog'lab itdan uzoqroqqa qo'yilgan. Arqonning ikkinchi uchiga itning oldingi oyog'i bemalol etgan. It go'shtga etish uchun turli harakatlari qilgan. Lekin u zanjir band bo'lganligi uchun uning harakatlari har gal ham natijasiz qolavergan. Bir vaqt, it tasodifan arqonni tortib yuborib, go'shtni olgan. SHunday qilib, itning bu harakati

mustahkamlana borib, u har safar go'shtni, arqonni tortib, osonlik bilan olaverган. Bir safar go'sht bog`langan arqon uchini itning oldingi oyog'i etmaydigan qilib qo'yilgan. It bir necha marta harakat qilib go'shtni ololmagan. Endi u o'z harakatini o'zgartiradi: orqasini o'girib keyingi oyog'i bilan arqonni tortadi va go'shtni olishga erishadi. Buni qanday izohlash mumkin?

## 2-laboratoriya mashg'uloti

**Mavzu:** Ongning taraqqiyoti

**Maqsad:** Psixikaning filogenetik taraqqiyoti haqida bilim va tasavvurlarni

shakllantirish

**Jihoz:** Ekspert varaqlari

### Ekspert varag'i №1

**1 – Topshiriq.** Turli hayotiy omillarni ifodalagan savol va vazifalar:

1. Nima uchun yangi o'rganayotgan bokshi raqibining qo'lqopining ko'z oldida paydo bo'lishi bilan ko'zini yumadi?
2. Vrach qachonlardir bolaga ukol qilgan edi. SHundan so'ng bola oq xalat kiygan har qanday odamdan, hattoki u odam bolaga yaxshi tanish bo'lsa ham, qo'rqafigan bo'lib qoldi. Bunga nima sabab?

### Ekspert varag'i №2

**2 - Topshiriq.** Turli hayotiy omillarni ifodalagan savol va vazifalar:

Odatda institutning birinchi kurs talabalariga o'qituvchi-ma'ruzachi birinchi marta auditoriyaga kirib kelganda o'rningizdan turib qarshi oling, ikkinchi soatga kirganda esa o'z joyingizdan qimirlamang, deb tarbiya beriladi. SHunga qaramasdan tanaffusdan so'ng ma'ruzachi ikkinchi marta xonaga kirib kelganda ham ba'zi talabalar o'rinalardan turadilar. Vaqt o'tishi bilan bu hodisa yo'qolib boradi. Bu omilning fiziologik asosi nimadan iborat?

### Ekspert varag'i №3

**3 - Topshiriq.** Turli hayotiy omillarni ifodalagan savol va vazifalar:

1.O'quvchilar mabteda yurish-turish haqidagi qoidaga muvofiq. o'qituvchining «Darsimiz tugadi», «Ketishingiz mumkin» degan so'zini eshitmagunlaricha o'rinalardan qimirlamasdan ishlarini davom ettirishlari lozim. Hatto qo'ng'iroq ertaroq chalinganda ham. Vaxolanki, dars oxirida chalingan qo'ng'iroq ko'p vaqt o'quvchilarni

harakatlanishga undaydi, natijada ular ishni yig`ishtirib sinfdan chiqishga oshiqadilar. Bolalar intizomini mustahkamlash uchun qaysi fiziologik jarayonni rivojlantirish kerak? 2.Ba`zi talabalar xiyobonda sayr qilib yurgan odamlarga diqqatlarini bo`limgan holda ikki-uchta bo`lishib bemalol dars tayyorlaydilar. Ba`zi talabalar esa, faqat tinchlik xukm surganda kitob o`qishga odatlanganlar. YUqorida aytib o`tilgan kishi odathlarini qanday tushuntirish mumkin?

### 3-laboratoriya mashg`uloti

**Mavzu:** Faoliyatning psixologik nazariysi

**Maqsad:** Faoliyat haqidagi psixologik nazariyalarni tahliliy o`rganish

**Jihoz:** Ekspert varaqqlari

#### Ekspert varag`i №1

**1-Topshiriq.** Maktabgacha tarbiya yoshi, kichik mакtab yoshidagi (bolalarda) va kattalarda ixtiyoriy harakatlarni rivojlantirish yo'llarini tekshirish. **Zarur material:** Turli rangga bo`yagan qog`oz parchalari.

**Topshiriqiing bajariishi.** Tajriba taraqqiyotning uch bosqichida bo`lgan sinaluvchilarda, ya`ni bog`cha bolalari, boshlang`ich sinf o`quvchilari va kattalar bilan olib boriladi. Har bir sinaluvchiga berilgan savollarga tez javob qaytarish uqtiriladi. Savollar orasida muayyan rangni aytishni talab qiluvchilari ham bor, masalan: «Kutubxona nima degani?», «Parta qanday rangda bo`ladi?», «Sen qishloqda bo`lganmisan?», «O`tning rangi qanaqa?», «SHifoxonada davolanganmisan?», «SHifoxona xalati qanday rangda bo`ladi?» kabi. Sinaluvchi savollarga javob qaytarar ekan, quyidagi ikki talabga rioya qilishi kerak: 1. Taqiqlangan ikki rang (yashil va qizil)ni aytmasligi lozim. 2. Bir marta aytildi rangni takror aytmasisligi zarur. Har bir yosh guruhi bilan ikki variantda olib bajariladi: a) ixtiyoriy harakatni amalga oshirishda tashqi yordamchi vositalardan foydalangan holda; b) tashqi yordamchi vositalardan foydalananmagan holda. Tashqi yordamchi vosita — taqiqlangan rangga bo`yagan qog`oz lentani sinaluvchining stoli ustiga tashlab qo`yiladi. Tajribaning natijalari quyidagi grafik (rasm) orqali ifodalanadi.

To'g'ri javoblar soni:	10 8 6 4 2 0		
	Bog`cha bolalari	Boshlang`ich sinf o'quvchilari	Kattalar

Pastki chiziq tashqi yordamchi vositalarsiz bajarilgan ixtiyoriy harakatlar ko'rsatkichi. YUqoridagi chiziq esa tashqi yordamchi vositalar bilan bajarilgan ixtiyoriy harakatlar ko'rsatkichidir. Boshlang`ich sinf o'quvchilarida yordamchi vositali ixtiyoriy harakatlar ko'rsatkichi yuqoridir. CHunki bog`cha yoshidagi bolalar tashqi yordam - vositalaridan foydalana olishlari lozim, kattalar bunga ehtiyoj sezmaydilar.

### Ekspert varag'i №2

**2-Topshiriq.** Faoliyat natijalarining bilish malakasining shakllanishiga ta'sirini tekshirish.

**Zarur material.** Millimetrlarga bo'lingan lineyka. **Topshiriqning bajarilishi.** Eksperimentator chizg'ichning 1 sm, 8 sm, 15 sm o'lchovlari uchta aniq ko'rinarli chiziqcha chizadi. Tajribaning birinchi turida sinaluvchi qalamning uchi bilan lineykaga biriktirilgan belgini birinchi ko'rsatkich (1 sm) dan ikkinchi ko'rsatkich (8 sm) gacha surib boradi. So'ngra ko'zini yumgani holda belgini uchinchi ko'rsatkich (15 sm) gacha surib borishi lozim. Topshiriqning natijasi sinaluvchiga ko'rsatilmagani holda eksperimentator tomonidan shartli belgilar («q», «—») yordamida aks ettirib boriladi. Tajriba 15 marta takrorlanadi. Tajribaning ikkinchi turida sinaluvchi tajriba natijalarini har safar ko'zini ochib, kuzatib boradi. Ikkinci bosqich ham 15 marta takrorlanadi. Tajriba natijalari quyidagi grafikda beriladi.

Xatolar 30 (mm hisobida) 25

20  
15  
10  
5

0 1 2 3 4 5 6 7 8 9 Tajribalarning soni

Tik chiziq xatolarning o'sishini (mm hisobida) ifodalaydi. Bunda

xatolarning og`ishi («q», «—») birgalikda qo'shib olingan. Gorizontal chiziq tajribalar sonini ko'rsatadi. Kontur chiziq tajribaning bиринчи turini, pastki chiziq esa tajribaning иккинчи turining natijalarini ifodalaydi. Tajriba natijalarining qiyosiy tahlili faoliyat natijalarini bilish małakalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir etishini ko'rsatadi.

### Ekspert varag'i №3

**3-Topshiriq.** YOzuv namunalarini chog' ishtirish metodidan foydalanib, harakat malakalarini shakllantirish jarayonini tekshirish.

**Zarur material.** To'g'ri chiziqli daftar va bir qator so'zlar, masalan: ishlatmoq, paxta, qimmat, katta, yashash kabilar.

**Topshiriqning bajarilishi.** Eksperimentator o'qib bergen so'zlarni sinaluvchilar daftari chiziqlariga tekkizmay chiziqlar orasidan yozishlari kerak. Avval yozuvni o'quvchilar ko'rib turib bajarsalar, so'ng ko'zlarini yumib bajaradilar. Tajriba yakunida so'zlarni yozishda o'quvchilar necha marta chiziqdagi tegib yoki chiqib ketganligini hisoblab, quyidagi jadval to'ldiriladi.

№	Necha marta chiziqqa tekkan	
	ko'rib turib yozilganda	ko'zni yumib yozilganda
1	0	6
2	0	6
3	0	4
4	0	3

YUqoridagi jadvalga asoslangan holda, ko'zni yumib yozilganda yozuv malakalarining shakllanish grafigi chiziladi. Chiziqqa tegishni ifodalovchi sonlarning qo'yisi va yuqori ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbat malakalarining shakllanish jarayoni intensiv ravishda borishini ko'rsatadi.

Chiziqqa	6
tegish	4
soni	2
0 1 2 3 4 5 6	
yozilgan so'zlarning tartib soni	

#### **4-laboratoriya mashg'uloti**

- Mavzu:** Shaxsninig muloqotchanlik sifatlarini aniqlash  
**Maqsad:** Shaxsninig muloqotchanlik sifatlari darajasini o'rganish  
**Jihoz:** Shaxsninig muloqotchanlik sifatlari darajasini o'rganish metodikasi

#### **«Muloqotga kirishuvchanlik»ni o'rganish testi**

Quyida berilgan 16 savolga «ha», «yo'q», «ba'zan» deb javob bering.

1. Sizni amaliy uchrashuv kutmoqda. Uni betoqatlik bilan kutasizmi?
2. Sizni biror kasallik holdan toydirmaguncha, vrachning oldiga borishni orqaga so'ravermaysizmi?
3. Sizni biror mavzudagi axborot bilan yig'ilish, majlis va shunga o'xshash tadbirda ma'ruza bilan chiqish topshirig'i xavotirga soladimi?
4. Sizga ilgari bormagan shahringizga safarga borib kelishni taklif etishdi. SHu safarga bormaslik uchun bor imkoniyatni ishga solasizmi?
5. O'zingizdag'i hissiy kechinmalar bilan kimlar bilandir o'rtoqlashishni yaxshi ko'rasizmi?
6. Ko'chada sizga notanish odam biror iltimos bilan murojaat qilsa, sizning g'ashingiz keladimi?
7. Siz «Otalar va bolalar» muammosi borligi va turli avlod vakillarining bir-birlarini tushunishlari qiyinligiga ishonasizmi?
8. Tanishingizga bir necha oy avval olgan qarz pulini eslatishga uyalasizmi?
9. Oshxona yoki restoranda sizga yoqmaydigan taom berishdi, idishni chetga surib, achchig'ingiz kelganini yashira olasizmi?
10. Begona odam bilan yolg'iz qolganingizda, u birinchi bo'lib gap boshlasa, Sizga javob qaytarish malol keladimi?
11. Siz turli erlarda odamlarning uzun navbatda turishganini ko'rsangiz, toqatingiz toq bo'ladimi? Navbatda turib kutishdan ko'ra, o'z niyattingizdan voz kechishni afzal ko'rasizmi?
12. Biror janjalli vaziyatni muhokama qilishi kerak bo'lgan komissiyaning a'zosi bo'lishdan qo'rmasizmi?
13. Sizda biror adabiyot, san'at va madaniyat asarlarini baholashning sof individual mezonlari bor va bu borada boshqalarning fikrini qabul qilmaysiz. SHundaymi?

14. Sizga juda tanish bo'lgan masala bo'yicha boshqalarning noto'g'ri fikrlarini tasodifan eshitib qolsangiz, indamay qo'ya qolasizmi?

15. U yoki bu masalada yordam berishingizni so'rashsa, siz bundan og'rinasizmi?

16. O'z nuqtai nazaringizni og'zaki bayon etgandan ko'ra, uni yozma tarzda ifodalashni afzal ko'rasizmi?

Endi ballarni xisoblang:

«ha» — 2 ball, «ba'zan» — 1 ball, «yo'q» — 0 ball. SHu tarzda ballarni qo'shib chiqqach, odamlarning qaysi toifasiga kirishingizni bilib olasiz.

**14-18 ball.** Sizning muloqotga kirishuvchanligingiz yaxshi, o'rtacha. Siz ko'p narsaga qiziqasiz, boshqalarni bajonidil tinglaysiz, o'zgalar fikriga sabr-toqatlisiz, o'z fikringizni bosiqlik bilan izhor etasiz. Begonalar bilan uchrashuvga borish siz uchun unchalik noxush emas, lekin shovqin-suronli davrani yoqtirmaysiz, odamlarning sergapi sizga yoqmaydi.

**9-13 ball.** Siz muloqotga kirishuvchansiz. Qiziquvchan, sergap, turli masalalarda o'zgalar bilan gaplashishni yaxshi ko'rasiz. YAngi odamlar bilan tanishish, davraning diqqat markazida bo'lishni yoqtirasiz. O'zgalarning iltimoslarini bajarmasangiz ham qabul qilaverasiz. Achchig'ingiz tez, lekin tez soviysiz. Sizga sabr-toqat, qiyinchiliklar bilan to'qnashganda jasorat etishmaydi. Lekin astoydil hohlasangiz, o'zingizni yon bermaslikka ko'ndirishingiz mumkin.

**4-8 ball.** Sizning muloqot malakangiz yomon emas, siz barcha ishlarning guvohi bo'lib yurasiz. Munozaralarda qatnashishni yaxshi ko'rasiz, biror masala yuzasidan yuzaki tasavvurga ega bo'lsangiz ham, o'z fikringizni aytishni hohlaysiz. Ishni oxiriga olib bora olmasangiz ham har qanday ishni boshlayverasiz. SHuning uchun ham rahbarlaringiz va kasbdoshlaringiz sizdan xavotirda bo'lishadi. Bu haqda o'ylab ko'ring.

**3 va undan kam ball.** Sizning kommunikativ malakalaringiz yaxshi emas, siz sergapsiz, har narsaga aralashaverasiz. O'zingiz umuman bexabar bo'lgan narsalar xususida ham fikr yuritaverasiz. Ixtiyorsiz tarzda turli ziddiyatlar va janjallarning ishtirokchisiga aylanib qolasiz. Jizzaki, salga xafa bo'ladigan odatingiz bor, shuning uchun odamlar siz bilan chiqisha olmaydilar. O'zingizni tutish, sabr-toqatli bo'lish uchun odamlarga hurmat bilan qarashga o'rganing. Qolaversa,

o'z sog'lig'ingiz haqida qayg'uring, chunki bunday hayot tarzi izsiz bo'lmaydi, asablarlingiz charchab qolishi mumkin.

### «O'zgalarni tinglay olasizmi?» testi

Quyida berilgan savollarga berilgan javoblarning o'zingizga mosini tanlab belgilang.

1. Sizningcha suhbatlashishdan maqsad nima?

- a) suhbatdoshni yaxshiroq o'rganish;
- b) biror masala bo'yicha o'z fikrini bildirish;
- v) fikr almashinish va muhokama qilish.

2. Sizga bolalar “Bulutlar qayerda uxlaydi?”, “Buvilar kichkina bo'lishganmi?” tarzida savollar berishadimi?

- a) ha, tez-tez;
- b) hech qachon;
- v) ba'zan.

3. Ertalab ishga yoki o'qishga ketayotib, qo'shiq xirgoyi qilasizmi?

- a) ha, doimo bir xil ashulani;
- b) ha, odatda har xil ashulani;
- v) yo'q, hech qachon.

4. Yig'ilish oxirida ma'ruzachiga savollar berasizmi?

- a) ha, doimo nimanidir so'rashga to'g'ri keladi;
- b) ba'zan, uning fikri bilan qo'shilmaganimda;
- v) hech qachon.

5. Do'stingiz yoki kasbdoshingiz bilan suhbatlashgandan so'ng o'sha muammo yuzasidan o'z qarashlaringizni o'zgartirganmisiz?

- a) ko'pincha shunday bo'ladi;
- b) ba'zan;
- v) hech qachon.

6. Kim bilandir suhbatlashayotganda:

- a) ko'proq siz gapirasiz;
- b) ko'proq suhbatdoshingiz gapiradi;
- v) ikkalangiz teng gapirasiz.

7. Narxi bir xil bo'lganda siz nimani xarid qilishni afzal ko'rasiz?

- a) kitobni;
- b) gramplastinkani;
- v) kinoga pattani.

8. SHeriringiz Sizga aloqasi bo'ligan o'z muammosi xususida gaplashmoqchi. Siz nima deb o'ylaysiz?

- a) "qimmatli vaqt ni yo'qotdim-a";
- b) "endi unga ta'sirim kuchliroq bo'ladi";

v) "unga yordam beryapman".

9. Quyidagi jumlalarning qay biri sizning nuqtai nazaringizga to'g'ri keladi?

a) ayni muammo yuzasidan mutaxassisgina aniq fikrga ega bo'lishi mumkin;

b) chiroyli gapishtini bilgan odam hohlagan mavzusida ham gapirishi mumkin;

v) ko'pincha mutaxassislarga o'z muammolari va g'oyalarini bayon etish uchun notiqlik malakasi etishmaydi.

10. Suhbat chog'ida xayolingiz chalg'ib ketsa, nima qilasiz?

a) gapishtotganni to'xtatib, o'sha erni qaytarishni so'rayman;

b) suhbat oxirida so'rash uchun o'zim uchun noaniq joyni eslab qolaman;

v) umuman menga hamma narsa ayon.

11. Ertalab radio orqali eshitgan axborot yoki qo'shiqni qaytara olasizmi?

a) ha, doimo;

b) ha, lekin esga tushirish uchun vaqt kerak;

v) eslay olmayman.

12. Estrada qo'shiqchisida sizga ko'proq nima yoqadi?

a) ovozi;

b) tashqi ko'rinishi;

v) sahnada o'zini tutishi.

13. Kontsertlarga tushish siz uchun:

a) qoniqish hosil qiladigan xodisa;

b) ko'p qatori bo'lisch;

v) yaxshi ko'rgan xonanda bilan uchrashuv.

14. Siz mehmondasiz, u yerda sizdan boshqa yana 5-6 kishi bor. Siz gap boshlaganingizda, ko'pincha:

a) sizni hech kim tinglamaydi;

b) hamma sizga mahliyo bo'ladi;

v) siz suhbatning tashabbuskori emassiz.

15. Siz jamiyatda ro'y berayotgan barcha hodisalardan xabardorsiz. Chunki siz:

a) muntazam televizor ko'rasiz;

b) radio eshitasiz;

v) gazeta o'qiysiz.

### ***Ballarni hisoblash:***

Savollar	Javoblar			Savollar	Javoblar		
	A	b	v		a	b	V
1	2	1	3	9	1	2	3
2	3	1	2	10	3	3	1
3	2	3	1	11	3	2	1
4	2	3	1	12	3	1	2
5	2	3	1	13	3	1	2
6	1	2	3	14	2	3	1
7	3	1	2	15	3	3	1
8	1	2	3				

Ballarni qo'shib chiqing.

**15-20 ball.** Siz o'zgalarni tinglamaysiz. Balki siz o'zgalarni tinglashdan oladigan foydaning qadrini bilmassiz, lekin siz bilim va tajriba uchun bu ishning foydasini bilishingiz zarur.

**25-30 ball.** Siz o'rtacha tinglovchisiz. Siz uchun suhbat ma'lumot manbai va muloqot uchun yetarli asos emas. Sizdan ko'p narsani o'rganish mumkin, lekin o'zingiz ham boshqalarda ko'p narsa olishingiz mumkinligini, tanqid va e'tirozlar ham foydali ekanligini unutmang, ko'proq boshqalarni tinglang.

**35-45 ball.** Sizda noyob sifat - o'zgalarni tinglash va meyorida gapirish bor. Siz bilan suhbatlashish juda yaxshi, chunki suhbatdosh sizdan doimo naf oladi. Siz o'zgalarning holatlarini tushunishga ham moyilsiz, ana shu noyob sifatni saqlang.

### **5-laboratoriya mashg'uloti**

**Mavzu:** Shaxsning o`z-o`zini baholash darajasini va yo'nalganligini o'rganish

**Maqsad:** Shaxsning o`z-o`zini baholash darajasini va yo'nalganligini aniqlash

**Jihoz:** O`zini-o`zi baholash darajasini va yo'nalganligini o'rganish metodikasi

**Kerakli jihoz.** SHaxsning ayrim fazilatlarini xarakterlovchi so'zlar, saranjomlik, beg'amlik, sermulohazalik, tajanglik, zehnli bo'lish, g'ururli bo'lish, qo'rslik, xushchaqchaqlik, g'amxo'rlik, hasadchilik, uyatchanlik, samimiylilik, izlanuvchanlik, injiqlik, ishonuvchanlik, sustkashlik, xayolparastlik, vahimachi bo'lish,

qasoskorlik, matonatlik, nafislik, bemalollik, asabiylik, jur'atsizlik, o'zini tuta bilmaslik, jozibadorlik, jizzakilik, ehtiyyotkorlik, iltifotli bo'lish, pedantlilik, harakatchanlik, gumonsirashlik, printsipiallilik, shoironalik, ko'rolmaslik, ochiq chehralik, shilqimlik, be'manilik, dadillik, ishga berilib ketib o'zini unutib yuborish, vazminlik, achinshlik, nomuslilik, chidamlilik, qo'rroqlik, qiziquvchanlik, sabotlilik, ko'ngilchanlik, beparvolik, tashabbuskorlik.

**Tajribaning bajarilishi.** O'z-o'zini baholash saviyasini miqdoriy ifodasini topishda quyidagi metoddan foydalilanildi.

Sinaluvchi oldin yuqorida keltirilgan so'zlar orasidan o'zida mavjud bo'lган xislatlarni ifodalovchi so'zlarni topadi. So'ngra o'zida qanday xislatlar bo'lismeni xohlovchi so'zlarni topadi.

Sinaluvchi berilgan so'zlarni diqqat bilan ko'rib chiqadi, so'ngra ularni ikki qatorga (har qatorga 10—20 gacha so'z) yozib chiqadi. Birinchi qatorga o'zining idealiga mos, ikkinchi qatorga esa o'zida bo'lmasligini ifodalovchi so'zlarni yozadi. Ikkinchi qatorni shartli ravishda «anti ideal» deb atashi mumkin. Birinchi qatordagi so'zlar «ijobiy» ko'plikni, ikkinchi qatordagi so'zlar «salbiy» ko'plikni tashkil etadi. Ular mezon bo'lib hisoblanadilar.

So'ngra sinaluvchi «ijobiy» va «salbiy» ko'pliklar orasidan o'zida bor xislatlarga mos bo'lган so'zlarni topadi. Bunda sinaluvchi mazkur xislatlarning qanday ifodalanganligi darajasini emas, balki uning o'zida bor yoki yo'qligini ko'zda tutmog'i lozim («Ha» yoki «Yo'q»).

**Natijalar tahlili.** Sinaluvchi tanlab olgan fazilatlar soni har bir ko'plik uchun sanalib chiqiladi va tegishli mezon qatoridagi umumiy so'zlar soniga taqsimlanadi. Agar ijobiy ko'plik bo'yicha koeffitsient birga yaqin bo'lsa, bu sinaluvchi o'zini ortiqcha baholab yuborgani va o'ziga tanqidiy munosabatda bo'limganidir. Salbiy ko'plik bo'yicha koeffitsientning ijobiy ko'plik bo'yicha nolga yaqinligi o'ziga etarli baho bermaganligidir.

Koeffitsientning 0,5 ga yaqin bo'lishi sinaluvchining o'ziga normal, o'rta baho berishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga u o'zini ortiqcha baholab yubormasdan, o'z-o'ziga tanqidiy yondashganligini ko'rsatadi.

## **6-laboratoriya mashg'uloti**

<b>Mavzu:</b>	Sezgi
<b>Maqsad:</b>	Muskul sezgisining farq qilish chegarasini aniqlash
<b>Jihoz:</b>	1 grammdan 500 grammgacha bo'lgan har xil qadoq tosh va metall plastinkalar.

Sezgirlikning farq qilish chegarasini aniqlash maqsadida ham minimal o'zgaruvchilar metodidan foydalilanildi. Farq qilish chegarasini aniqlash maqsadida dastlab etalon qo'zg'atuvchini ajratib olish kerak. Dastlab etalon qo'zg'atuvchi, keyin o'zgaruvchi qo'zg'atuvchilar bir vaqtda beriladi. Tekshiriluvchi "katta", "kichik" yoki «teng» deb javob berishi kerak bo'ladi. Natijalarni tahlil qilish uchun javoblar o'zgarishi "kichikdan tengga" "tengdan katta"ga o'tishining chegarasini aniqlash zarur bo'ladi. "katta" va "kichik" degan javoblarning o'rtacha qiymati topiladi. Ular o'rtasidagi farq noaniqlik intervalini belgilaydi. Noaniqlik intervalining teng yarmi qidirilayotgan farq qilish chegarasini topish imkonini beradi.

### **Ishning borishi:**

Tekshiriluvchi ko'zi yumuq yoki bog'lab berkitib qo'yilgan holda o'ng va chap qo'liga bittadan qadoq toshni olib, ularning vaznini chamalaydi. Har ikkala toshni u qo'ldan bu qo'lga almashtirib, chamalab, salmoqlab ko'rishi ham mumkin. Dastlab har ikkala toshning vazni baravar (masalan, 600 grammdan) bo'lishi kerak. Tekshiriluvchining bir qo'lidagi qadoq tosh taqqoslash uchun «o'zgarmas me'yor» bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi qo'lidagi qadoq toshlarning vazni sekin-asta (1, 2, 3 va h.k. grammgacha) orttirib boriladi va tekshiriluvchidan toshlarning qay biri og'irlashganligini dam-badam so'rab boriladi. Muayyan vaqt o'tgach, tekshiriluvchi ikkala qo'lidagi toshlar vazni o'zgarganini sezadi. Tekshiriluvchi tomonidan farqlab olingan qo'shimcha og'irlilik miqdori undagi muskul sezgisini farqlash chegara ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Har bir ko'rsatkich bayonnomada qayd etib borilishi kerak.

### **BAYON NOMA:**

Tartib raqami	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi (gramm hisobida)		Tekshiriluvchidan olingan ko'rsatkich
	Doimiy	O'zgaruvchi	
1	600	601	Teng
2	600	602	Teng
3	600	603	Teng
4	600	604	Teng

5	600	606	Teng
6	600	610	Teng
7	600	612	Teng
8	600	615	Teng
9	600	617	Teng
10	600	618	Teng
11	600	619	Teng
12	600	620	O'ng qo'lindagi og'ir
13	600	620	O'ng qo'lindagi og'ir
14	600	620	O'ng qo'lindagi og'ir
15	600	620	O'ng qo'lindagi og'ir

Har bir tekshiriluvchida uning yoshi, tajribasi, hatto shug'ullanadigan ish faoliyatiga bog'liq holda sezgirlik chegarasi o'zgarishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichga qarab sezgirlik chegarasi haqida xulosa chiqariladi.

### 7-laboratoriya mashg'uloti

- Mavzu:** Idrok  
**Maqsad:** Shaklni idrok qilishda faol va passiv tuyushning rolini aniqlash  
**Jihoz:** Shakli, burchaklarining soni va katta-kichikligiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi yassi geometrik shakllar, oq qog'oz, qalam

"Tuyish" tushunchasidan ikki xil o'rinda foydalanilishi mumkin. Birinchidan – teri sezgirligini ifodalash maqsadida. Bu holda uning – harorat, og'riq va taktil sezgirlik turlari farqlanadi. Ikkinci tomondan – gaptik sezgirlik sifatida namoyon bo'lib, uning taktil va kinestetik turlari ajratiladi. Gaptik sezgirlik – paypaslab ko'rish orqali hosil bo'ladi. Agar ob'yekt qo'lda tinch holatda tursa, bu passiv tuyish bo'ladi. Tekshiriluvchi predmetni paypaslab ko'rganda faol tuyish haqida so'z borishi mumkin. Predmetni paypaslab ko'rish jarayonida ikki qo'l ham ishtirok etsa bimanual tuyish hisoblanadi. Predmetlarning shakli idrok qilishda aktiv va passiv tuyishning rolini aniqlash maqsadida quyidagi tajribani o'tkazish mumkin. Tajriba IV bosqichdan iborat. Har bir

bosqichda qo'zg'atuvchi sifatida shakli va murakkabligi jihatidan turlicha bo'lgan 3 tadan figura yoki geometrik shakl beriladi. V bosqichda esa tuyish obrazlari hosil bo'lishida har ikki qo'lning o'zaro ta'siri o'rganiladi.

Tajriba jihozи – qattiq kartondan yasalgan burchaklari va shakli bir – biridan farq qiladigan geometrik shakllardir.

Tajriba natijalari I-IV bosqichlar uchun alohida va V bosqich uchun alohida tahlil qilinadi. Tekshiriluvchilarning javoblari 5 ballik shkala asosida baholanadi. Har bir bosqich bo'yicha o'rtacha qiymat aniqlanadi va xulosa chiqariladi.

### **Ishning borishi:**

Tajriba 4 bosqichda olib boriladi.

### **Birinchi bosqich – tinch turgan shaklni passiv tuyish.**

Tekshiruvchi tekshiriluvchining kaftiga harakatlanmayotgan shaklni qo'yadi. Bunda tekshiruvchiga shaklni bosish, tekshiriluvchiga esa uni paypaslab ko'rish ta'qilanganadi. Tekshiruvchining buyrug'i bilan tekshiriluvchi ko'zidagi bog'lamni yechib, qanday shaklni idrok qilganligini oldidagi qog'ozga chizib beradi.

### **Ikkinci bosqich – harakatlanayotgan shaklni passiv tuyish.**

Tekshiruvchi shaklning konturi bo'ylab tekshiriluvchining o'ng qo'li ko'rsatkich barmog'ini bir marta aylantirib chiqadi. So'ngra tekshiriluvchi idrok qilgan shaklini chizib beradi.

### **Uchinchi bosqich – sun'iy faol tuyish.**

Tekshiriluvchi asta-sekinlik bilan o'ng qo'lining ko'rsatkich barmog'i bilan shaklning konturini bir necha marta aylantirib ko'radi. So'ngra idrok qilingan shaklni chizib beradi.

### **To'rtinchi bosqich – faol tuyish.**

Tekshiriluvchi bir qo'li bilan unga tavsiya etilgan shaklni paypaslab ko'radi va idrok qilingan shaklni chizib beradi.

### **Beshinchi (taqqoslash uchun) bosqich – bimanual (ikki qo'l bilan) tuyish.**

Tekshiruvchi tekshiriluvchiga shaklni berib, uni ikki qo'l bilan paypaslab ko'rishga ruxsat beradi. Bunda tekshiriluvchiga uni tuyish jarayonida o'zini qanday his qilganligini, o'ng va chap qo'li ko'proq qanday xususiyatlarni bilayotganligini aytib turadi. So'ngra idrok qilgan shaklini chizib beradi.

## BAYON NOMA:

Shakl raqam i	Tajriba				O'rtacha ball			
	I	II	III	IV	I	II	III	IV
1								
2								
3								

### Natijalarni tahlil qilish:

Chizilgan rasmlar 5 balli shkala bo'yicha baholanadi.

5 ball – agar rasm originalga to'la mos kelsa;


4 ball – rasmda ayrim qismlar qisqartirilgan bo'lsa;

3 ball – faqat tomonlar emas, balki burchaklar ham qisqartirilgan bo'lsa;

2 ball – tomonlar, burchaklar qisqartirilgan, ayrim qismlar tushirib qoldirilgan bo'lsa;

1 ball – rasm bilan original shakl o'rtasida hech qanday o'xshashlik mavjud bo'lmasa.

Idrok qilish uchun tavsiya etiladigan shakllar:



### 8-laboratoriya mashg'uloti

**Mavzu:** Diqqat. Diqqatning barqarorligi va ko'lamenti aniqlash

**Maqsad:** Diqqatning barqarorligi va ko'lamenti o'rGANISHSH

**Jihoz:** Korrektur sinovi metodikasi materiallari

Mazkur metodika diqqatning turli sifatlarini tashxis qilishda qo'llanuvchi an'anaviy metodikalardan biridir. Metodika materiali I – rasmda keltirilgan maxsus blankdan iborat.

1. Korrektur sinov metodikasi vositasida diqqatning mahsuldarlik darajasini o'rGANISH.

Sinaluvchiga ko'rsatma: «Berilgan blankdan «K» va «N» harflarni topib, «K» harfini ustidan chizib qo'ying, «N» harfini doiraga olib qo'ying. Topshiriqni bajarish uchun sizga 5 daqiqa vaqt beriladi».

Diqqatning mahsuldorlik darajasini hisoblash.

A – topshiriqni bajarishdagi aniqlik.

T – to'g'ri o'chirilgan va doiraga olingan harflar miqdori.

X – xatolar (noto'g'ri o'chirilgan va doiraga olinmay qolgan harflar) miqdori.

$$A = \frac{T}{T+X}$$

M – diqqat mahsuldorligining koeffitsenti.

R – belgilangan vaqt ichida ko'rib chiqilgan barcha harflar miqdori.

A – topshiriqni bajarishdagi aniqlik.

$$M = R \cdot A$$

2. Korrektor sinov metodikasi vositasida diqqatning ko'chuvchanlik darajasini o'rganish.

Sinaluvchiga ko'rsatma: «Berilgan blankning toq sonli qatorlarida «K» harfini topib, ustidan chizing, «N» harfini topib doiraga olib qo'ying. Blankning juft sonli qatorlarida «K» harfini topib, uni doiraga olib qo'ying, «N» harfini topib, ustidan chizib qo'ying. Topshiriqni tez va aniq bajarish kerak. Topshiriqni bajarish uchun sizga 5daqiqa vaqt beriladi.

Diqqatning ko'chuvchanlik darajasini hisoblash.

K – diqqat ko'chuvchanligining koeffitsenti.

Kx – xato mavjud bo'lgan qatorlar miqdori.

Q – belgilangan vaqt ichida ko'rib chiqilgan barcha qatorlar miqdori.

$$K = \frac{Qx}{Q} \cdot 100$$

СХАВСХЕВИХНАИСХВХВКСНАИСЕХВХЕНА  
АКВНХИВСНАВСАВСНАЕКЕАКВКЕСВСНАИС  
ХНВКННИСХВЕКВХИВХЕИСНЕИНАИЕНКХ  
КИСВХИХАКХНСКАИСВЕКВХНАИСХЕКХИС  
ХКВНАВСНИСНАИКАЕХКИСНАИКХЕХЕИСНА  
ИСНАИХВИКХСНАИСВНКХВАИСНАХЕКЕХСН  
ВЕАИСНАСНКИВКХКЕКНВИСНКХВЕХСНАИС  
АЕСНКХКВИХКАСАИСНАЕХКВЕНВХКЕАИС  
ВЕВНКВХАВЕИВИСНАЕХКВЕНВНАХИЕНАИК  
ИВАКСВЕИКСНАВАКЕСВНКЕСНКСВХИЕСВХ  
ВЕВКНИЕСАВИЕХЕВНАИЕНХЕИВКАИСНАСН  
ВННАКСХИЕНАСНАИСВКХЕВСЕВХКХСНЕИС  
ВКХВЕКЕВКВНАИСНАИСНКЕВКХАВСНАХКА  
СЕСХКВАЕЧНАСАВКХСНЕИСХИХЕКВИКВЕН  
ХАВИХНВИХКХЕХНВИСНВСАЕХИСНАИНКЕ  
ЕИСНВИАЕВАЕНХВХВИСНАЕИЕКХНВЕКЕХК  
АЕИХВКЕВЕИСНАЕАИСНКВЕХИКХНКЕАНСН  
ХЕВСКХЕКХНАИСНКВЕВЕСНАИСЕКХЕКНАИ  
ИСНВИЕКВХЕИВНАКИСХАИЕВКЕВХИЕХЕИС  
КСИСНАИАИЕНАКСХКИВХНИКИСНАИВЕСНА  
НАИКВЕХКВКЕСВКСХИАСНААКСХХВХЕАЕ  
КИСНАИЕХКЕХКЕИХНВХАКЕИСНАИКХВСХН  
СВЕСНАИСАКВСХАЕАСХАИСНАЕИКИСХКЕХ  
ЕИНАВЕКХЕКНАИВКВКХЕХИСНАИХКАХЕНА  
КЕИСНАИЕХВКВИЕХАИЕХЕКВСНЕИЕСВНЕВ  
ХХКСНАКИИСНАИЕИНЕВИСНАИВЕВХСИСВ  
СНАИСВНЕКХСНАИААВЕНАХЕАКХВЕИВЕАИ  
НАХКСВХЕХИВХАИСНАВНСИЕАХСНААЕСН  
ЕВИКИКНКНАВСНЕКВХКАСИАЕСВКХЕКСНА

**«CHigal chiziqlar» metodikasi diqqat kontsentratsiyasi (jamlanishi)ning darajasini aniqlash uchun qo'llanadi.**

Sinaluvchiga ko'rsatma: Qarshingizdag'i har bir chigal chiziqlarning o'ng tarafidagi uchini toping, bo'sh katakka tegishli raqamni qo'ying. Ishni 1 – chiziqdan boshlang, undan so'ng 2 – 3 va h. CHiziqlarning oxirini toping. Topshiriqni tezroq bajarishga harakat qiling.

Natijalarini qayta ishlash: Diqqat kontsentratsiyasining darajasini quyidagi formula yordamida topish mumkin.

$$\mathbf{D} = \mathbf{V} * \mathbf{Tj}$$

Bu yerda: D – Diqqat kontsentratsiyasi shuncha yuqori bo’ladi.

### **9-laboratoriya mashg’uloti**

**Mavzu:** Tasavvur

**Maqsad:** Tasavvurlarning yorqinligi va aniqligini baholash.

**Jihoz:** D. Marks so’rovnomasini

Tasavvurlarni yorqinligi – aniqligini D. Marks so’rovnomasidan foydalanib baholanadi. Mazkur so’rovnomada tasavvurning yorqinligi – aniqligi 5 balli tizimda baholanadi.

Baholash shkalasi:

5 ball – tasavvur idrok obrazi kabi aniq, yorqin va sof holda.

4 ball – tasavvur aniq, yorqin, tiniq.

3 ball – tasavvur o’rtacha aniqlikda va yorqinlikda.

2 ball – tasavvur noaniq, xira.

1 ball – tasavvur umuman mayjud emas, faqat predmet haqida o’ylaydi.

Ishning borishi:

Tajriba boshida tekshiruvchi tekshiriluvchiga quyidagicha ko’rsatma beradi: «Ushbu tadqiqotning maqsadi sizda paydo bo’lgan tasavvurlarning yorqinligi va aniqligini baholashdan iborat. So’rovnoma topshiriqlari sizda muayyan tasavvur hosil qiladi. Berilgan shkalaga asoslanib, hosil bo’lgan tasavvurlarning yorqinligi va aniqligini baholashingiz kerak. Tasavvurni bu ob’yekt haqidagi bilimlar bilan aralashtirib yubormang. Siz ob’yektni fikran ko’rishingiz va uning yorqinligi va aniqligini baholashingiz kerakligini unutmang».

1. Siz tez-tez ko’rib turadigan yaqinlaringiz, do’stlaringizdan biri haqida o’ylang. Fikran shu kishi qarshingizda turibdi deb tasavvur qiling. Quyidagi savollarga asoslanib, tasavvurlarning yorqinligi, aniqligini baholang.

Shu kishining yuzi, boshi, yelkalari, tanasini aniq tasavvur qiling.

Shu kishiga xos bo’lgan bosh va tananing holatini (poza) tasavvur qiling.

Shu kishining gavdasini tutishi, yurishi, qadam tashlashini tasavvur qiling.

Shu kishining kiyimlari va uning rangini tasavvur qiling.

2. Quyosh chiqishidagi quyidagi holatlarni tasavvur qiling va shkala bo'yicha baholang.

Quyosh osmonning bir chetidan asta ko'tarilmoqda.

Quyosh moviy osmonda turibdi.

Quyosh ko'tarilgan, lekin osmonda bulutlar bor. Bir tomonda esa chaqmoq chaqmoqda, momoqaldiroq bo'lyapti.

Quyosh turibdi, osmonda kamalak bor.

3. O'zingiz tez-tez kirib turadigan magazinni tasavvur qiling va shkala bo'yicha baholang.

Ko'chaning qarama-qarshi tomonida turib, magazinni to'laligicha tasavvur qiling.

Tasavvur qiling: siz eshikka yaqinlashayapsiz, uning rangi, hajmi va boshqa qismlari qanaqa?

Magazin vitrinasini undagi mahsulotlar bilan birgalikda tasavvur qiling.

Tasavvur qiling: siz magazinga kirdingiz, peshtaxtaga yaqinlashdingiz, sotuvchi sizga mahsulot va qaytim beryapti. Uning qo'llari qanaqa?

4. Daraxtlari, tog'lari, ko'li bilan birgalikda qishloq manzarasini tasavvur qiling.

Uzun landshaftini butunligicha tasavvur qiling.

Daraxtlar, ularning rangi va hajmini tasavvur qiling.

Ko'lning rangi va hajmini tasavvur qiling.

Tasavvur qiling: shamol turdi, daraxt yaproqlari shovullaydi, ko'lda to'lqinlar paydo bo'ldi.

Har bir tekshiriluvchi uchun alohida bayonnomma shakli tayyorlanadi.

#### B A Y O N N O M A:

So'rovnoma dagi raqami	topshiriq	Ball
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		
7.		
8.		
9.		
10.		
11.		

12.	
13.	
14.	
15.	
16.	
O'rtacha arifmetik qiymat – M	
Dispersiya – D	

### Natijalar tahlili:

Tekshiruvchi ballarni bayonnomaga qo'yadi. So'ngra barcha natijalar yig'indisi hisoblanadi. Umumiy yig'indi sub'yeqtning tasavvur qila olish qobiliyati ko'rsatkichi hisoblanadi. U qanchalik ko'p bo'lsa, tasavvur shunchalik yorqin bo'ladi.

Tekshiriluvchining o'rtacha ballari (M) hisoblanadi va guruhdagi o'rtacha arifmetik qiymatdan qanchaga chetlashgani, dispersiya (D) aniqlanadi.

### 10-laboratoriya mashg'uloti

**Mavzu:** Xotira

**Maqsad:** Xotira jarayonida turli assosiatsiyalarning ahamiyatini aniqlash

**Jihoz:** 50 juft so'z va javob varaqalari.

### Tajribaning borishi.

**Ko'rsatma:** Daftaringizga 1 dan 50 gacha tartib raqamlari qo'yib chiqing. Men sizlarga 50 juft so'zlarni bir marta o'qib beraman. So'ng men birinchi so'zlarni o'qib beraman, siz esa tegishli raqamga ikkinchi so'zlarni yozib borishingiz kerak.

1. Barmoq — tirnoq.	26. Bosh — soch
2. Lolaqizg'aldoq — qizil.	27. Ko'mir — qora
3. Cho'l — qo'ng'iroq..	28. Gugurt — ochlik
4. Maktab — tanbeh.	29. Shirin — achchiq
5. Shamol — bo'ron	30. Yomg'ir — loy
6. Soat — strelka	31. Shahar — ko'cha
7. Qand — shirin	32. G'ildirak—yumaloq
8. Deraza — harf	33. Qalin — olomon
9. Baland — past	34. Mukofot — nafrat

10. Porox — portlash	35. Quyosh — yorug'lik
11. Ko'z — qorachig'	36. Poezd — vagon
12. O't — yashil	37. Bo'tako'z — zangori
13. Meva — sham	38. Tutun — qoida
14. Mukofot — jazo	39. Baland — past
15. Ayoz — sovuq	40. Ish — charchash
16. Kitob — sahifa	41. Institut — auditoriya
17. Ustara — o'tkir	42. Pat — engil
18. Daftар — elkan	43. Papiros — abajur
19. Yorug' — qorong'i	44. Mardlik — qo'rkoqlik
20. Yoz — issiq	45. O'qish — bilim
21. Uy — tom	46. Qo'l — kaft.
22. Qor — oppoq	47. Yo'l — uzoq
23. Devor — chiroq	48. Parovoz — simyog'och
24. Sukunat — harakat	49. Sovuq — issiq.
25. Zahar — o'lim	50. Yara — og'riq

Juft so'zlar uchun kalit: № 1, 6, 16, 11, 21, 26, 31, 36, 41, 46 — butun — bo'lak;

№ 2, 7, 12, 22, 27, 32, 37, 42, 47 — predmet — xususiyat;

№ 3, 8, 13, 18, 23, 28, 33, 38, 43, 48 — odatdan tashqari birikma;

№ 4, 9, 14, 19, 24, 29, 34, 39, 44, 49 — kontrast;

№ 4, 10, 20, 25, 30, 35, 40, 45, 50 — sabab — oqibat.

**Tekshirish.** Men juft so'zlarning birinchisini o'qiymen. Agar siz ikkinchi so'zni to'g'ri yozgan bo'lsangiz, unda « + » qo'ying, noto'g'ri yoki umuman yozmagan bo'lsangiz, unda « → » qo'ying.

**Hisoblash.** Har bir so'z birikmasi bo'yicha (butun — bo'lak, predmet, xususiyat, ...) tajribada ishtirok etgan barcha studentlar uchun o'rtacha arifmetik miqdor hisoblab chiqiladi.

**Xulosa.** Material yaxshi esda olib qolinishi uchun, avvalo voqelikdagi ob'yektiv aloqalarni aniq va to'la aks ettiradigan bog'lanishlar sistemasini tanlab olish kerak.

### Xotiraning tanlovchanlik tabiatini o'rganish

**Kerakli jihoz:** So'zlar qatori

**Ko'rsatma:** Men sizlarga bir necha so'zlar o'qib beraman. Ularni qanday esda olib qolganlaringizni bir marta o'qiganimdan so'ng tekshirib ko'raman.

O'qib bo'lib, yozing degan buyruqdan so'ng esda olib qolgan so'zlariningizni yozib qo'ying.

1. Avtomobil	11. O't yoqish	21. YOtoqxona	31. Kitob
2. Bolta	12. Ayriliq	22. Bolt	32. Torozi
3. Gugurt	13. Kasal	23. Radikal	33. Quvvat
4. Traktor	14. Doska	24. O'qish	34. Lektor
5. Maktab	15. Sessiya	25. Kongo	35. Senat
6. Uchrashuv	16. Sovun	26. Bulut	36. Qalam
7. Tayoq	17. O'qituvchi	27. Isitgich	37. Lava
8. Kombayn	18. Do'stlik	28. Parta	38. Patok
9. Daftар	19. Vint	29. Xo'rak	39. Ruchka
10. Soliq	20. Devor	30. Jayron	40. Qozg'oq

**Tekshirish.** Sekin-asta o'qing va to'g'ri esga tushirgan so'zlariningizni yoniga « + » qo'yib chiqing.

**Hisoblash.** Gruppadagi 20 so'zdan qanchasi esga tushirilganligi hisoblab chiqiladi. Qaysi so'zlar boshqalaridan ko'ra, yaxshiroq esda olib qolindi? Nima uchun?

1. 100%-75%-a'lo, 2. 75%-50%-yaxshi, 3. 50%-25%-o'rta, 4. 25%-0-past

**Xulosa.** Hamma so'z ham birdek esda yaxshi qolmaydi. Emotsional kuchli yoki ahamiyatli materiallar yaxshi esda olib qolinadi.

Tajribalardan kelib chiqadigan xulosa materialni o'rganish va takrorlashning ratsional tashkil qilinishi to'g'risida tavsiyalar bilan tugashi kerak. Mavzu talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashga, o'z xotirasini mukammallashtirishga, shuningdek o'qituvchiga o'z o'quvchilari xotirasini rivojlantirishga yordam beradigan bo'lishi kerak.

O'quv materiallarini puxta esda olib qolish, esda saqlash, shuningdek o'quv qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida xotiraning individual xususiyatlarini hisobga olib ish ko'rmoq zarur.

## 11-laboratoriya mashg'uloti

**Mavzu:** Tafakkur

**Maqsad:** Masala yechish usuliga tajribaning ta'sirini o'rganish  
(lachins metodikasi).

**Jihoz:** Arifmetikaga oid topshiriqlar to'plami

A.S. Lachins tomonidan ishlab chiqilgan metodika yordamida bir xil tipdag'i vazifani yechish jarayonidagi ikki guruh tekshiriluvchilar natijalarini solishtirish orqali fikrlash jarayonidagi rigidlikni aniqlash mumkin. Vazifa shunday tanlanishi kerakki, ularning bir qismi bir usul bilan, qolganlari ikki usul bilan yechiladi.

Tajriba boshlangunga qadar har biri 10 tadan arifmetik vazifadan iborat 2 ta varaqqa tayyorlanadi. 1-guruh tajriba, ikkinchisi nazorat guruhi deb qaralib, ularga alohida-alohida vazifalar beriladi. Har ikki guruhdagi tekshiriluvchilar bir-birlariga bog'liq bo'limgan holda vazifalarni yechishlari kerak bo'ladi. 1-5 vazifalar bittadan yechimga ega, 6-10 vazifalarning esa minimal bitta yechimi bor yoki ratsional yechimga ega emas.

Natijalarni tahlil qilish uchun nechta tekshiriluvchi 6-10 vazifalarni ratsional usul bilan yechganligini hisoblab, foizga aylantirish kerak.

Ko'p hollarda tekshiriluvchi 1-5 vazifalarni bir xil usul bilan yechgandan so'ng 6-10 vazifalarni ham shunday usul bilan yechishga harakat qiladilar, sharoit o'zgarganligini sezmaydilar. Bunda fikrlash jarayonida bilish rigidligi vujudga kelganligini aniqlash mumkin.

### Ishning borishi:

Tajribani o'qituvchi olib boradi. Talabalar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi tajriba guruhiiga birinchi to'plamdag'i vazifalar, ikkinchi – nazorat guruhiiga ikkinchi to'plamdag'i vazifalar beriladi. Barcha ishtirokchilar vazifalarni navbatma-navbat yechishlari kerak bo'ladi.

Tekshiriluvchiga ko'rsatma: «Qo'lingizdagi varaqda 10 ta arifmetik topshiriq bo'lib, ularni tartib bilan yeching. Qo'lingizdagi varaqqa barcha arifmetik sullarni yozishingiz mumkin. Vazifani yechish vaqtি cheklanmagan. Uni mustaqil ravishda boshqalardan ko'chirmay bajarishga harakat qiling».

## BAYON NOMA:

Topshiriq to'plami	Tekshiriluvchilar guruhi	Vazifani yechish			
		Ratsional		Noratsional	
		Abs.	%	Abs.	%
I	Tajriba				
II	Nazorat				

### Natijalar tahlili:

1. Barcha tekshiriluvchilar o'z varaqlariga ratsional va noratsional yechimga ega bo'lgan vazifalar sonini belgilashadi. 1-5 topshiriqlar bittadan ratsional yechimga ega. 6-10 vazifalar ikki yoki bir usul bilan yechiladi. Ba'zilari hech qanday usulni talab qilmaydi.
2. Tajriba va nazorat guruhidan 6-10 topshiriqnin ratsional usulda yechgan tekshiriluvchilar soni aniqlanadi va bayonnomaga yoziladi.
3. Olingan natijalarning foizdagi ko'rsatkichi hisoblanadi.

Natijalar tahlili asosida tafakkurning rigidligi haqida xulosa chiqariladi.

Lachins metodikasi uchun topshiriqlar to'plami:

### Tajriba guruhi uchun:

1. Uchta idish berilgan: 37, 21 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lchash mumkin?
2. Uchta idish berilgan: 37, 24 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?
3. Uchta idish berilgan: 39, 22 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 13 litr suvni o'lchash mumkin?
4. Uchta idish berilgan: 38, 25 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?
5. Uchta idish berilgan: 29, 14 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 11 litr suvni o'lchash mumkin?
6. Uchta idish berilgan: 28, 14 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lchash mumkin?
7. Uchta idish berilgan: 27, 12 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lchash mumkin?
8. Uchta idish berilgan: 30, 12 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 15 litr suvni o'lchash mumkin?

- Uchta idish berilgan: 38, 7 va 5 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 12 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 29, 10 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lhash mumkin?

**Ikkinchchi nazorat guruhi uchun:**

- Uchta idish berilgan: 26, 10 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 28, 7 va 5 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 12 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 30, 12 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 15 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 27, 12 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 28, 14 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 38, 25 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 29, 14 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 11 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 39, 22 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 13 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 37, 24 va 2 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 9 litr suvni o'lhash mumkin?
- Uchta idish berilgan: 37, 21 va 3 litrli. Ulardan foydalanib, qanday qilib 10 litr suvni o'lhash mumkin?

**Maqsad:** Tafakkur jarayonlari harakatchanligi (labilligi)ni o'rganish.

**Jihoz:** Har bir tekshiriluvchiga 10 tadan «So'zli labirint», sekundomer.

**Ishning borishi:**

Talabalar guruhi 2 kishidan bo'linadi. Ularning biri tekshiruvchi, ikkinchisi tekshiriluvchi vazifasini bajaradi. Tekshiruvchi tekshiriluvchiga quyidagi ko'rsatmani o'qib beradi: «Hozir sizga so'zlar yashiringan labirint ko'rsatiladi. Sizdan ana shu labirint ichidan iloji boricha tezroq chiqish talab qilinadi. Labirintga kirish quyi qatorning o'ng burchagidan, chiqish esa yuqori qatorning chap burchagida. Labirintdan chiqish yo'llarini qidirish jarayonida vertikal va gorizontal yo'naliishlar bo'yicha sakramagan holda (sidirg'asiga)

bir necha harflar ustida harakat qilishingiz mumkin. Qalamni harflar ustida yurgizayotgan paytingizda tovush chiqarib aytib turing. Har bir labirintga kirishni buyruq olgandan so'ng boshlaysiz. Topgan so'zingizni labirint yoniga qalam bilan yozib qo'ying».

Tekshiruvchi har bir labirintdan chiqishga sarflangan vaqt va urinishlar sonini bayonnomaga yozib boradi.

### BAYON NOMA:

Vazifani yechish ko'rsatkichi	Vazifaning raqami										Statistik ko'rsatkic h
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
Vaqt, (sek.)											
Urinishlar soni											

### Natijalar tahlili:

1. O'nta vazifani yechish uchun sarflangan vaqtning va urinishlarning o'rtacha qiymati ( $M$ ) va o'rtacha kvadratik chetlashishi ( $(\bar{x})^2$ ) hisoblanadi.
2. Diagramma tuziladi. Bunda abssissa o'qiga labirint raqami, ordinata o'qiga har birini yechish uchun sarflangan vaqt, tepasiga urinishlar soni ko'rsatiladi.
3. Tafakkurning harakatchanligi haqida diagrammadagi ustunlarning balandligi va urinishlar soniga ko'ra xulosa chiqariladi.

### «So'zli labirintlar»

қомютк	килатп	тсокбу	килнид
санайч	стикрн	ниелик	инлайк
исалда	енчвок	еснирс	нейзак
авитоб	имеалш	ментад	еъкуте
висипс	тиксую	арепдо	лататси
състари	нцаркб	бакмет	гутсум
акитсо	кигулд	товормт	витмуч
таиран	алсони	нарсна	абаикр
микжог	нсвиун	еаиноп	матрою
итатза	анзошс	мирепс	тэйлук
суркаи	кбовлз	нетозк	акцука
аражод	нибоит	имазкэ	исълиф

РИНГЛС	яицлам
ОСМОНТ	твадли
КИЗНОК	тсубрц
СКОЛДЕ	сатурн
УББАТИ	еширко
ЕПСШАТ	жуецка

## 12-laboratoriya mashg'uloti

**Mavzu:** **Temperament**

**Maqsad:** Temperament tipini aniqlash

**Jihoz:** **Temperament tipini aniqlash testi va javob varaqalari.**

**Ko'rsatma:** Berilgan to'rt fikrdan birini tanlab javob jadvaliga o'sha harfga (+) qolganlariga esa (-) qo'yiladi. Hamma (10 ta) fikrlardan o'zingizga ta'alluqlisini belgilaganingizdan so'ng qaysi ustunda (+) ko'p bo'lsa o'sha sizning temperamentingiz hisoblanadi.

### Savollar varaqasi

**I.** A – kayfiyatim tez-tez o'zgarib turadi, hursandchilik tez xafachilikka

aylanishi mumkin, achchig'imni chiqarish oson.

B – doimo xushchaqchaqman va shu kayfiyatim odamlarga o'tib turadi.

V – doimo kayfiyatim bir xil achchig'imni chiqarish qiyin.

G – doim kayfiyatim yomon, meni kuldirish qiyin.

**II.** A – chaqqon va harakatchanman.

B – sekin va past ovozda gapirish yoqadi.

V – tez va shoshib fikrimni bildirishimni xohlayman.

G – sekin va baland ovozda kam harakat bilan gapiraman.

**III.** A – agar ishim yurishmasa ham boshlagan yo'llimdan qaytmayman va

boshqa yo'lni izlayman.

B – ishim yurishmasa bu ishni to'htatib, shu ishni boshqa yo'lini

izlayman.

V – ishim yurishmasa xafa bo'laman va tashlab yuboraman.

G – ishim yurishmasa u yodimdan chiqadi va boshqasini davom ettiraman.

**IV. A – tez charchayman.**

B – ko'p va oxirigacha etkazib ishlayman.

V – yutuq bo'ladijan ishni yaxshi ko'raman.

G – har qanday ishni bajaraman, faollik (aktivlik) qilaman.

**V. A – tanbehni yoqtirmayman, bahslashaman.**

B – tanbehni jim tinglayman, lekin yana xato qilaman.

V – tanbehni diqqat bilan tinglab tuzataman.

G – tanbehni eshitib xafa bo'laman, lekin bahslashmayman.

**VI. A – ishlashdan oldin reja tuzib, keyin ishni boshlayman.**

B – agar ishda qiyinchilik bo'lsa tezda moslashaman (shu ishga).

V – ishga tez kirishaman lekin keyin qiyin bo'lsa tuzataman.

G – ishni boshlashdan oldin o'ylayman, yoqmasa ishlamayman.

**VII. A – bir qarorga kelishdan oldin o'ylayman, hayajonlanaman.**

B – bir qarorga kelishdan oldin o'ylayman.

V – bir qarorga kelishim qiyin.

G – bir qarorga tezda kelaman.

**VIII. A – muloqotda muloyim, taktikali, hozir javobman.**

B – muloqotda boshlovchi, chaqqonlikni yaxshi ko'raman.

V – muloqotni ko'p yaxshi ko'rmayman, bir o'zim bo'lsam yaxshi.

G – hafachilikni optimistik ravishda qabul qilaman, tez unutaman.

**IX. A – hafachilikdan qattiq ranjiyman, lekin tezda unutaman.**

B – xafachilikdan qattiq ranjiyman, tez unuta olmayman, boshqalarga

bildirishni yomon ko'raman.

V – xafachilikni tez unuta olaman.

G – xafachilikni optimistik ravishda qabul qilaman, tez unutaman.

**X. A – hazilni, hazil qilishni yaxshi ko'raman.**

B – hazilni yaxshi ko'raman, faqat eng yaqin kishim bilan.

V – bo'lar-bo'lmash hazil qilaman, lekin odamlar buni tushunmaydi.

G – hazilni unchalik yoqtirmayman, hazil qilishni ham.

Nº	X	S	F	M
1	A	B	V	G
2	V	A	G	B
3	B	G	A	V
4	V	G	B	A
5	A	V	B	G
6	V	B	A	G
7	B	G	V	A
8	G	B	V	A
9	A	G	B	V
10	A	V	B	G

JAMI (+)

Xolerik      Sangvinik      Flegmatik      Melanxolik

### Temperamentning 32 tipini aniqlash.

Mazkur metodika Kettel, Ayzenk, Leongard va Lichko metodikalarining o'ziga xos yig'indisi hisoblanadi. Metodikaning asosini G.Yu.Ayzenk so'rovnomasining o'smirlar varianti tashkil qilib, uning natijasida «neyrotizm», «ekstravertsiya» shkalalari bo'yicha o'smirlarga xos tiplar aniqlanadi.

Kerakli jihozlar: **Test savolnomasi va javob varaqasi.**

**Yo'riqnomasi:** «Taklif etilayotgan savollarga o'ylamasdan «ha» yoki «yo'q» deb javob berishingiz kerak. Javoblar tarqatilgan maxsus javob varaqchalarining tegishli joyiga yoziladi».

1. Sizga atrofingizdagи jonlanish va elib-yugurishlar yoqadimi?
2. Siz, tez-tez sizni tushunadigan, ma'qullashi yoki tinchlantirishi mumkin bo'lgan do'stlarga zarurat sezasizmi?
3. Sizdan biror narsani so'rashsa, doimo tez javob topa olasizmi?
4. Biror narsadan kayfiyatningiz yoki asabingiz buzilgan vaqt bo'lib turadimi?
5. Kayfiyatningiz tez-tez o'zgarib turadimi?
6. Sizga o'rtoqlaringiz bilan birga bo'lishdan ko'ra kitob o'qish afzalroqmi?
7. Tez-tez miyangizga turli fikrlar kelib, kechalari uyqungiz qochadimi?
8. Doimo Sizga nima deyilsa, shuni bajarasizmi?
9. Siz birovning ustidan hazillashib kulishni yoqtirasizmi?

10. Siz, biror asosli sabab bo'lmasa ham, o'zingizni baxtsizdek his etganmisiz?
11. Siz o'z haqingizda «quvnoq, jonli odamman» deb aytal olasizmi?
12. Siz matabda biror marta bo'lsa ham tartibni buzganmisiz?
13. Ko'pincha biror narsadan asabingiz buzilib yuradimi?
14. Hamma narsani tez bajarishni yoqtirasizmi?
15. Hammasi yaxshilik bilan tugashi mumkin bo'lsa ham, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qo'rqinchli xodisalarni o'ylab hayjonlanasizmi?
16. Sizga har qanday sirni ishonib aytish mumkinmi?
17. Siz zerikib o'tirgan tengdoshlaringiz davrasini osongina jonlantira olasizmi?
18. Sizda hech qanday sababsiz (jismoni zo'riqmay va ish qilmay turib ham) yuragingiz tez-tez uradigan vaqt bo'ladimi?
19. Siz odatda birov bilan do'stlashish uchun birinchi bo'lib harakat qilasizmi?
20. Siz yolg'on gapirganmisiz?
21. Sizni va qilgan ishingizni tanqid qilishsa tez kayfiyatningiz buziladimi?
22. Siz o'rtoqlaringiz bilan tez-tez hazillashib, ularga turli qiziq voqealarni so'zlab turasizmi?
23. Tez-tez o'zingizni horg'in, charchagan his qilasizmi?
24. Siz doimo avval dars tayyorlab, keyin qolgan ishlarni qilasizmi?
25. Siz odatda doimo quvnok va hamma narsadan ko'nglingiz to'qmi?
26. Siz arazchimisiz?
27. Siz o'rtoqlaringiz bilan muloqatda bo'lishni juda yaxshi ko'rasizmi?
28. Yaqinlaringiz va qarindoshlaringizning uydagi xo'jalik ishlariiga yordamlashish haqidagi iltimoslarini doimo bajarasizmi?
29. Boshingiz aylanib turadimi?
30. Sizning harakatlaringiz va ishlaringiz odamlarni noqulay ahvolga solib qo'yadigan holatlar bo'lib turadimi?
31. O'zingizni tez-tez biror narsa joningizga tekkanday his qilasizmi?
32. Ba'zida maqtanishni yoqtirasizmi?

33. Siz uchun notanish bo'lgan odamlar davrasiga tushib qolganingizda ko'pincha sukut saqlab jim o'tirasizmi?
34. Sizda ba'zan bir joyda o'tira olmaydigan darajada hayajonlanish bo'ladimi?
35. Siz odatda biror narsa yuzasidan tezda bir qarorga kelasizmi?
36. Siz sinfda, o'qituvchi bo'limgan vaqtida ham shovqin qilganmisiz?
37. Siz tez-tez qo'rqinchli tushlar ko'rib turasizmi?
38. Siz o'z hissiyotlaringizga erk berib, do'stlaringiz davrasida quvnab o'tira olasizmi?
39. Sizni hafa qilish osonmi?
40. Birovni yomonlab gapirgan vaqtleringiz bo'lganmi?
41. Siz odatda ko'p o'ylab o'tirmay tez gapirasiz va harakat qilasiz?
42. Agar noqulay (hijolatli) holatga tushib qolsangiz, keyin uzoq vaqt siqilib yurasizmi?
43. Siz quvnoq va shovqinli o'yinlarni juda yaxshi ko'rasizmi?
44. Sizdan biror narsani so'rashsa «yo'q» deb javob berish qiyinmi?
45. Siz doimo nimani berishsa o'shani eysizmi?
46. Siz tez-tez mehmonga borishni yoqtirasizmi?
47. YAshagingiz kelmay qolgan vaqtlar bo'ladimi?
48. Ota-onalaringizga qo'rslik, qo'pollik qilgan vaqtleringiz bo'lganmi?
49. Tengdoshlaringiz sizni quvnoq va xushchaqchaq odam deb hisoblashadimi?
50. Dars tayyorlayotganingizda tez-tez boshqa narsalarga chalg'ib ketasizmi?
51. Umumiy ko'ngilxushlik, xursandchilik bo'layotganda unda faol ishtirok etishga qaraganda ko'proq bir chekkada o'tirasiz va kuzatasiz to'g'rimi?
52. Siz odatda turli fikr-hayollar bilan uslashga qiynalasizmi?
53. Bajarishingiz lozim bo'lgan ishni uddalay olishingizga to'liq ishonasizmi?
54. O'zingizni yakka-yolg'iz his qilgan vaqtleringiz bo'ladimi?
55. Yangi odamlarga birinchi bo'lib gapirishga tortinasizmi?
56. Biror ishni qilib qo'yib, so'ngra afsus chekasizmi?
57. Kimdir sizga baqirib gapirsa Siz ham unga javoban baqirib gapirasizmi?

58. Hech qanday sababsiz o'zingizni quvnoq yoki g'amg'in his qilgan vaqtlarining bo'ladimi?

59. Siz tengdoshlaringizning quvnoq davrasidan haqiqiy bahra olish qiyin deb hisoblaysizmi?

60. Siz o'ylamay qilib qo'ygan ishingiz uchun tez-tez qayg'urib yurasizmi?

### Natijalar tahlili.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari:

1. Ayzenk testini o'tkazish.

2. Natijalarni hisoblash.

3. Natijalarni tiplar jadvali asosida taqqoslash.

4. «Yolg'on» shkalasi bo'yicha 5 balldan ortiq qiymatga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni tanlash va ajratish.

### Kalit.

1. Ekstraversiya (E): «Ha»: 1, 3, 9, 11, 14, 17, 19, 22, 25, 27, 30, 35, 38, 41, 43, 46, 49, 53, 57. «Yo'q»: 6, 33, 51, 55, 59.

2. Neyrotizm (N): «Ha»: 2, 5, 7, 10, 13, 15, 18, 21, 23, 26, 29, 31, 34, 37, 39, 42, 45, 47, 50, 52, 54, 56, 58, 60.

3. «YOlg'on»: «Ha»: 8, 16, 24, 28, 36, 44. «Yo'q»: 4, 12, 20, 32, 40, 48.

12-17 yoshli o'smirlarni temperamentning biror tipiga mansubligini aniqlash jadvali: ekstraversiya (E) — 11-14 ball, «yolg'on» — 4-5 ball, neyrotizm (N) — 10-15 ball.

### Temperament tiplari.

No	Ayzenk testi ma'lumotlari	No	Ayzenk testi ma'lumotlari
	E, ballar		N, ballar

1	0 - 4	0 - 4	17	16 - 20	4 - 8
2	20 - 24	0 - 4	18	4 - 8	16 - 20
3	20 - 24	20 - 24	19	4 - 8	4 - 8
4	0 - 4	20 - 24	20	16 - 20	16 - 20
5	0 - 4	4 - 8	21	12 - 16	8 - 12
6	0 - 4	16 - 20	22	8 - 12	8 - 12
7	0 - 4	8 - 16	23	16 - 20	8 - 12
8	4 - 8	0 - 4	24	12 - 16	4 - 8
9	8 - 16	0 - 4	25	8 - 12	4 - 8
10	16 - 20	0 - 4	26	4 - 8	8 - 12
11	20 - 24	4 - 8	27	4 - 8	12 - 16
12	20 - 24	8 - 16	28	8 - 12	16 - 20
13	20 - 24	16 - 20	29	12 - 16	16 - 20
14	16 - 20	20 - 24	30	16 - 20	12 - 16

### Temperament tiplarining tahlili va psixokorreksiya qilish yo'llari

1 - TIP E: 0-4; N: 0-4

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** YUvosh, tinchlikni yoqtiradi, vazmin. Guruhda o'zini kamtar tutadi, kamsuqum. Hamma bilan do'stlashishga intilavermaydi, ammo bu boradagi takliflar va intilishlarni ham rad etmaydi. Agar haqligini bilsa qaysarlikka moyil. Kulgili holga tushmaydi. Xotirjam gapiradi, nutqi ravon. Sabrli. Sovuqqonli.

**Korreksii yo'llari.** Tarbiyachilarni kam bezovta qiladi, pedagoglar, trenerlar, boshliqlar, rahbarlar unga kam e'tibor berishadi. Asosiy yondoshuv – o'ziga-o'zi baho berish xususiyatini kuchaytirish kerak. Bunda guruhning e'tiborini shu bolaga qaratiladi. Bolaga ish sur'atini, jadalligini tanlash imkonini berish maqsadga muvofiq. Kamtarlik, sovuqqonlik kabi fazilatlarning ahamiyatini ta'kidlash, undagi bu xususiyatlarni rag'batlantirish kerak.

2 - TIP E: 20-24; N: 0-4

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** quvnoq, muloqotchan, so'zamol. Atrofidagilarning e'tiborida bo'lishga intiladi. Optimist, muvaffaqiyatga ishonadi. Ishga yuzaki yondoshadi. Uni hafa qilganlarni osonlik bilan kechira oladi, ziddiyat va munozaralarni hazilga aylantirishga intiladi. Ta'sirchan, yangiliklarni yoqtiradi. Uni hamma yoqtiradi, hurmat qiladi. Ammo muammolarga yuzaki yondoshadi, beg'am. Namoyishkorlikka moyil, artistlik xususiyatlarini namoyon etishi mumkin, ba'zan talabchan (injiq) bo'ladi. Biror narsada pirovard natijaga erishishni

uddalay olmaydi (har narsaga qiziqadi, lekin bu yuzaki bo'lgani uchun tezda soviydi, ihlosi qaytadi).

**Korreksiya yo'llari.** Mehnatsevarligini, tabiiy artistlik qobiliyatini va yangiliklarga intilish xususiyatini rag'batlantirish kerak. Asta-sekin qat'iylikka, ishni oxiriga etkazishga, intizomga, tashkilotchilikka o'rgatib borish kerak (masalan original topshiriq berish yo'li bilan). Vaqtidan tejamli, unumli foydalanishni tashkil etishga yordam berish lozim (to'garak mashg'ulotlari, boshqa sevimli mashg'ulotlar, biror narsa yaratish va hokazo).

**3 - TIP E: 20-24; N: 20-24**

**Namoyon bo'lisl xususiyatlari.** Faol, yaxshi rivojlangan, jangarilik xususiyatlari bor. Kulgili emas, hamma bilan «teng» munosabatda bo'lislga intiladi. Juda oriyatli. O'zidan kattalarning nuqtai-nazari bilan kelisha olmasa unga qarshi faol qarshilik qiladi. O'ziga e'tiborsizlik, mensimay qarashni ko'tara olmaydi.

**Korreksiya yo'llari.** Asosiy taktika – unga namoyishkorona hurmat bilan munosabatda bo'lisl kerak. Munosabatni hotirjam, vazminlik bilan ishontirish, asoslash bilan tashkil etish lozim. Unga ma'qul bo'limgan gap yoki munosabatga javoban istehzoli, masxaromuz javob berishi mumkin. Munozara, ziddiyat sodir bo'lgan holda shu vaqtining o'zida va joyida uni tahlil qilish, aniqlik kiritishga urinmaslik kerak. Bu muammolarni keyinroq, boshqa tinch-hotirjam vaziyatda muhokama qilgan ma'qul. Bunda e'tiborni muammoning mohiyatiga va uni sovuqqonlik bilan, his-tuyg'ularga berilmagan holda bartaraf etish imkoniyati hamda yo'llariga qaratish kerak. Bu tipdag'i o'smirlarda tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek ulardagi ichki imkoniyatni qo'llash bilan bog'lik mashg'ulotlarni (sport, turli musobaqalar) tavsiya etish mumkin.

**4 - TIP E: 0-4; N: 20-24**

**Namoyon bo'lisl xususiyatlari.** Notinch tip, doimo xushyor va sezgir, o'ziga ishonchi kam. O'ziga rahnamo izlaydi. Muloqatchan emas, shuning uchun o'ziga hamda atrofidagilarga ob'ektiv baho berishda ko'p yanglishadi. Dimog'dor. Biror narsaga va muhitga sekinlik bilan moslashadi, shuning uchun harakatlari ham sekin. Faollikni yoqtirmaydi. O'ychan. Ko'pincha umumiy falsafiy mulohalar bildirishga moyil. Vaziyatni osonlik bilan chigallashtirishi, murakkablashtirib yuborishi mumkin.

**Korreksiya yo'llari.** U doimo uni qo'llashlarini xoxlaydi. Imkoniboricha uning bu moyilligiga mos munosabatda bo'lisl lozim. Uni

kalaka qilish, undan kulish hollaridan muhofaza qilish kerak. Ijobiy xususiyatlarini ta'kidlash (o'ychanlik, bir hildagi, monoton faoliyatga moyillik) maqsadga muvofiqliq. Unga boshqalar bilan ko'p va tez-tez muloqatda bo'lismi talab etmaydigan, vaqtin qat'iy cheklanmagan faoliyatni tanlash imkonini berish kerak. Atrofidagilarga qiziqishini kuchaytirish lozim. O'ziga sezdirmagan holda faol-haraktchan va samimiy-dilkash odamlarga ro'para qilish foydali.

#### 5 - TIP E: 0-4; N: 4-8

**Namoyon bo'lismi xususiyatlari.** Xayolparast, hotirjam. Real hayotda qiziqish va intilishlari kam, shuning uchun erishgan natijalari va yutuqlari ham kam. Ichki olami o'zi to'qigan yoki kitoblarda o'qigan (kinoda ko'rgan) holatlarga yo'nalgan. Itoatkor, befarq.

**Korreksiya yo'llari.** O'z-o'ziga to'g'ri va to'liq baho berishga o'rgatilishga muxtoj. SHunda undagi befarqlik barham topadi va nimalargadir intilish vujudga keladi. SHu asosda ishi va o'qishining sifati va samarasini yaxshilanadi. Undagi kuchli va ijobiy xususiyatlarni aniqlab, uni shu asosda biror narsa bilan band qilishga kirishish lozim.

#### 6 - TIP E: 0—4; N: 16-20

**Namoyon bo'lismi xususiyatlari.** Vazmin, tortinchoq, hissiyoti kuchli, notanish vaziyatda tortinadi. O'ziga ishonchi kam, orzulari ko'p. Ko'pchilikni yoqtirmaydi, umumiy va oqilona fikrlar bildirishga moyil. Ko'p shubhalanadi. O'z kuchi va imkoniyatlariga oz ishonadi. Umuman olganda o'zini tutib olgan. Tahlikaga tushib vaziyatni chigallashtirmaydi, o'zini yo'qotib qo'ymaydi. Lekin xotirjam emas. Ko'pincha asabi tarang bo'lib turadi, qat'iylik etishmaydi. Xayolparastlikka moyil.

**Korreksiya yo'llari.** Uni qo'llab-quvvatlab turishga intilish kerak. Guruh oldida uning ijobiy hislatlarini ( jiddiylik, tarbiyalilik, sezgirlik) maqtab gapirish yaxshi samara beradi. Biror yaxshi g'oya bilan band qilish mumkin (masalan, o'zidan ojizroq, pastroq, qoloqroq bolaga yordam berish.) Bu o'ziga va hayotga real va optimistik ruhda baho berish qobiliyatini rivojlantiradi.

#### 7 - TIP E: 0-4; N: 8-16

**Namoyon bo'lismi xususiyatlari.** Juda kamtar, faol, doim biror narsa bilan band. Adolatli, sadoqatli do'st bo'la oladi. Juda yaxshi, qobiliyatli yordamchi bo'lishi mumkin. Ammo uquvsiz tashkilotchi, uyatchan. Panada bo'lismi afzal biladi. Odatda turli guruhlarga qo'shilmaydi. Bir kishi bilangina do'stlashadi. O'zaro munosabatlarga

katta baho beradi.Ba`zan zerikarli suhbatdosh. U ko`pincha ko`rsatmalar bo`yicha ishlashga moyil (tug`ma itoatkorlik xususiyati).

**Korreksiya yo'llari.** Uning faoliyatiga erkinlik berish, rag`batlantirib turish maqsadga muvofiq, bu undagi tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Undagi siqiqlik, jur`atsizlikka barham berishga, mustaqil harakat qildirishga urinib ko`rish lozim. Uni ko`pchilik ichida tanqid qilish, uyaltirish yaramaydi. O`z kuchi, qobiliyat va imkoniyatlarga ishonch uyg`otish lozim. Birovning obro`sni, kuchi, qobiliyatiga ko`rko`rona ishonishdan qaytarish kerak.

#### 8 - TIP E: 4—8; N: 0-4

**Namoyon bo`lish xususiyatlari.** Xotirjam, davralarda va guruhlarda muloqotga moyil. Estetik jihatdan iqtidorli. Faoliyatga qaraganda o`y়lashga ko`proq moyil. Vazmin. Muvaffaqiyatlarga befarq. «Hammaga o`xshab» ishlashga intiladi. O`zaro teng munosabatlar tarafdori, ammo hodisalardan chuqur ta`sirlanmaydi. Ziddiyat va munozaralardan o`zini osonlik bilan olib qochadi.

**Korreksiya yo'llari.** Asosiy vazifa — faoliyatga moyilligini kuchaytirish kerak. Uni eng ko`p qiziqtirgan faoliyat bilan mashg`ul qilish lozim (ko`pincha bu badiiy-ijodkorlik bilan bog`liq). YUtuqlarini maqtash lozim. U bilan tez-tez muloqotda bo`lib turish maqsadga muvofiq. Bunda uning ijtimoiy ongini rivojlantirishga e'tiborni qaratish kerak.

#### 9 - TIP E: 8-16; N: 0-4

**Namoyon bo`lish xususiyatlari.** Juda faol, quvnoq. Muloqotchan. Muomala qilishda odam tanlamaydi. Tartibsizlikka qarshilik qilish xususiyati past, shuning oqibatida turli g`ayri ijtimoiy guruhlarga osonlik bilan jalb etiladi. YAngiliklarga moyil, qiziquvchan. Ijtimoiy ongi yaxshi rivojlanmagan. Vaziyat va holatga mos baho bera olmaydi. O`z-o`ziga baho berish xususiyati past rivojlangan. Ko`pincha qat`iy fikrga ega emas. Harakatchan. Ishonuvchan.

**Korreksiya yo'llari.** O`zini to`liq safarbar etadigan, qattiq rejim maqsadga muvofiq. Do`stona munosabatlar o`rnatish kerak, biroq bunda u o`zini kuzatilayotganini his qilib tursin. +uvvatini foydali ishga yo`naltirish kerak (masalan ulkan dolzarb g`oyalarga qiziqtirish, nimagadir erishish, obro`li oliy o`quv yurtiga o`qishga kirishga undash). Ammo bunda u qilishi kerak bo`lgan ishlarni albatta birgalikda rejalashtirish (o`ziga qo`yib qo`ysa uddasidan chiqa olmaydi), buni bajarish shakli, hajmi va muddatlarini qat`iy belgilash shart.

SHuningdek, bu tipdagи o'smirni kuchli va ijobiy hislatlari bor sardorga (etakchiga) ega bo'lган guruh tarkibiga kiritish yaxshi samara beradi.

**10 - TIP** E: 16-20; N: 0-4

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Artistlik qilish layoqati bor. Odamlarning ko'nglini ochishga moyil. Etarli darajada qat'iy va talabchan emas. Muloqotchan. CHuqur mulohaza qilmaydi. O'zini qo'lga olgan.

**Korreksiya yo'llari.** Uni qiziqtirgan maqsadga erishish yo'llidagi intilishlarini qo'llash kerak. Uning o'zida qiziqarli maqsad yoki mashg'ulotni tanlash uchun, bu borada ish boshlashga salohiyat etarli, lekin boshlagan ishini ohiriga etkazishga matonat, abjirlik etishmaydi. Artistlik, o'yinqaroq-hazilkashlik xislatini rag'batlantirish, lekin uning masxarabozlikka o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

**11 - TIP** E: 20-24; N: 4-8

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Faol, muloqotchan, mard, oriyati kuchli. SHubhali va havfli mashg'ulotlarga, ermaklarga osonlik bilan rozi bo'ladi. Ko'pincha do'st tanlashga, maqsadiga erishish yo'llarini tanlashga e'tiborli emas. Olijanob. Ko'pincha xudbin. Dilxush. Tashkilotchilikka moyilligi bor. Eng oldingi safda bo'lishni yaxshi ko'radi.

**Korreksiya yo'llari.** Tashkilotchilikka moyilligini rag'batlantirish va rivojlantirish lozim. U etakchi bo'lishi mumkin, lekin doimo nazorat qilib turish kerak. Manmanligining oldini olish kerak. Jamoa va guruhdagi etakchilik o'rni undagi mahmadonalik va yalqovlik hislatlaridan osonlik bilan holis bo'lish imkonini beradi. Kerak bo'lganda jamoa o'rtasida ko'pchilik bo'lib tanqid qilish mumkin.

**12 - TIP** E: 20-24; N: 8-16

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Intizomga osonlik bilan bo'ysunadi. O'z g'ururi, hamiyatiga ega. Tashkilotchi. San'atga, sportga ishqiboz. Faol. Biror kimga yoki narsaga osonlik bilan maftun bo'ladi. Odamlar va hodisalarga tezda kirishib ketadi. Ta'sirchan, hissiyoti kuchli.

**Korreksiya yo'llari.** Hissiy-emotsional jihatdan ham, ishchanlik jihatidan ham etakchi. Undagi bu xususiyatni qo'llash, bu borada har tomonlama yordam va maslaxat berish kerak. Etakchi sifatida o'zini tutish, muloqat qilish qoidalarini o'rgatish lozim.

**13 - TIP** E: 20-24; N: 16-20

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Murakkab tip. SHon-shuxratga intiladi. Juda jonsarak, harakatchan. +uvnoq. Odatda baland (yuqori) g'oyaviy yo'nalishga ega emas. Hayotiy quvonchlar bilan band. Uning uchun asosiy narsa turmushdagi maishiy qulayliklar va xursandchiliklar. Salobatli, hamma yaxshi ko'radigan, chiroyli narsalarga ishqiboz. Nima qilib bo'lsa ham muvaffaqiyatga, foydaga, yutuqqa erishishga intiladi. Omadi yurishmaganlarni mensimaydi. Muloqotchan. Namoyishkor. Ko'pincha o'z talablarini odinga suradi.

**Korreksiya yo'llari.** Maqsad — o'smirni muayyan doirada tutib turish kerak, chunki u manmanlikka, atrofdagilarni kuch yoki ayyorlik bilan o'ziga itoat qildirishga moyil. Xotirjam va qat'iy harakat qilish lozim. Boshqa ishobiy va namunali xislatlarga ega bo'lgan bolalarni unga namuna qilib ko'rsatish maqsadga muvofiq. Unga tashkilotchilik rolini berish mumkin. Bunda undan burchlarini to'liq bajarishni talab qilish lozim. Estetik tarbiyaga ahamiyat berish zarur.

**14 - TIP** E: 16—20; N: 20-24

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Farmoyishkor, turli shubhalarga beriluvchan, baqiroq, ikir-chikirlarga e'tiborli. Doimo birinchi bo'lishga intiladi. Maydagap. Har qanday ustunligidan bahra oladi. Achitib-kesatib gapirishga moyil. Ojizlar ustidan kulishga, ularni masxara qilishga qodir. O'ch olishga intiladi, nazar-pisand qilmaydi, raxm-shafqatsiz. Tez toliqadi.

**Korreksiya yo'llari.** Befarq qarab bo'lmaydi. Unga nisbatan do'stona munosabatda ham, istehzoli munosabatda ham bo'lish mumkin. Etakchilik mavqeiga erishishiga imkon berish kerak, biroq bunda u nazoratda bo'lishi lozim: u ko'proq bo'yruqbozlikka emas, qog'oz va hujjatlarga e'tibor bersin. Undagi qat'iylik, irodalik va agar lozim bo'lsa qaysarlikni qo'llash kerak. SHu bilan birga o'smirda atrofidagilarga ijobiy hissiy munosabatlarni va qarashlarni shakllantirish lozim.

**15 - TIP** E: 8-16; N: 20-24

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Doimo norozi, shikoyati ko'p, nimadan yoki kimdandir norozi bo'lib yuradi. Talabchan. Achitib-kesatib gapirishga moyil emas. Arzimagan narsadan ham tezda hafa bo'ladi. Ko'pincha qovog'i soliq, asabiy. Hasadchi. Ishonch bilan ish bajarmaydi. Munsabatlari ko'pincha itoatkorlikka moyil. +iyinchiliklardan qochadm, chekinadi. Sinfda (guruhda) bir chekkada yuradi. Kek saqlaydi. Odatda do'stlari yo'q. Tengdoshlariga farmoyish beradi, etakchilik qiladi. Tovushi past, lekin keskin.

**Korreksiya yo'llari.** U bilan hech bo'lmasa sal-pal bo'lsayam munosabat o'rnatish kerak. Buni uning beriluvchanligi (hadiksirashi)ga asoslangan holda amalga oshirish oson. Uning ahvoli, o'zini qanday his qilishi bilan qiziqish, uni qiziqtirgan mavzu yoki muammoni muhokama qilish orqali ishonchini qozonish mumkin. Jamoat ishi sifatida unga qog'oz-hujjat ishlarini bajarishni topshirish mumkin – uning ikir-chikirlarga, mayda narsalarga e'tiborliligi bu ishlarni yaxshi bajarishini ta'minlaydi). YAxshi ijrochiligini guruh oldida maqtash kerak, bu unga tengdoshlari bilan yaxshi munosabat o'rnatishiga yordam beradi. Bu tipdag'i o'smirlar doimiy e'tiborga va ular bilan individual ishlashga muxtojlar.

### 16 - TIP E: 4-8; N: 20-24

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Juda ta'sirchan, sezgir, hissiyotli tip. Odamlarga ishonchsizlik bilan qaraydi, qalbi ehtirosli, kamgap, ochilib gaplashmaydi, arazchi. O'ziga yuqori baho beradi. Erkin mulohazали, tanqidiy qarashlarga ega. Pessimist. Umumiylar mulohazalarga moyil. Ko'pincha o'ziga ishonchi yo'q.

**Korreksiya yo'llari.** U bilan munosabatda: ehtiyyotkor bo'lism, sinfdoshlari oldida rag'batlantirish, yaxshi munosabatda bo'lism, hurmat qilishni ta'kidlash lozim. Uning adolatli tanqidiy fikrlarini qo'llash, lekin unda nasihatgo'ylik va tanqidchilikka berilib ketishdan xususiyatlari rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

### 17 - TIP E: 16-20; N: 4-8

**Namoyon bo'lism xususiyatlari.** Juda hissiyotli. Balandparvoz, quvnoq, muloqotchan, maftunkor. Muloqot qilayotganda odam tanlamaydi, hamma bilan do'stona munosabatga moyil. Sodda, bolalarcha sho'xlik xususiyatlari bor, turg'un emas, muloyim. Atrofidagilar unga yaxshi munosabatda. Xayolparast. Etakchilikka intilmaydi, xufyona-do'stona munosabatlarni afzal biladi.

**Korreksiya yo'llari.** YAxshi kayfiyatini ma'qullash va qo'llash kerak. Estetik moyilliklarini rivojlantirish lozim, qiziqish va intilishlarini ma'qullash (rag'batlantirish, e'tibor berish, o'quvchilar o'rtasida chiqish yoki namoyish etishni taklif etish) kerak. Irodaviylik hislatlarni (qat'iylik, intilish darajasini) shakkantirishga e'tibor berish lozim.

### 18 - TIP E: 4—8; N: 16-20

**Namoyon bo'lism xususiyatlari.** Empativlik (birov larga hamdard bo'lism) xususiyati kuchli. Juda raxmdil, ojizlarga yordam berishga moyil, xufya-do'stona munosabatlarni ma'qul ko'radi. Kayfiyati ko'pincha xotirjam-sokin. Kamtar, tortinchoq. O'ziga ortiqcha

ishonmaydi. Xayolparast. Noqulay va yoqimsiz vaziyatlarda darrov sergak va shubhalanuvchan bo'lib qoladi.

**Korreksiya yo'llari.** Osoyishta, samimiylar munosabatni qo'llash maqsadga muvofiq. O'ziga sezdirmay nazorat qilib borish lozim. Og'ir vaziyatlarda – maqsadga erishish, faol va mustaqil nuqtai-nazarini vujudga keltirish, muloqotlar o'rnatish yo'li (sinfdoshlari yoki kattalar bilan) – yordam berish lozim. Ko'pchilik o'rtasida unga salbiy baho berishdan saqlanish kerak.

#### 19 - TIP E: 4—8; N: 4-8

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Tinch va xotirjam tip. Kamgap, mulohazali. Sekin ish qiladi, lekin uni oxirigacha etkazadi, mustaqil, ko'proq o'z aqli bilan ish ko'radi, sinchkov, zaxmatkash. Xissiyotlarga berilmaydi, kamsuqum. Ba'zan real sharoitni unutib qo'yadi.

**Korreksiya yo'llari.** Bu tipdag'i o'smirlarda o'z-o'ziga baho berish qobiliyatini, intilishlar doirasini rivojlantirish kerak. Uning moyilliklari va qibiliyatlarini aniqlash lozim. Unga katta shaxsiy mas'uliyati bor bo'lgan ishni topshirib qiziqtirish kerak (bu ish odamlarga qaraganda ko'proq qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgani ma'qul). Bu tipdag'i o'smirlar turli masalalar yuzasidan muloyim va oxistalik bilan berilgan maslaxat hamda tavsiyalarga muxtojdirlar.

#### 20 - TIP E: 16-20; N: 16-20

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Juda namoyishkor, hamdard bo'la olmaydi. Hissiyoti juda qashshoq. O'zini jamoaga, guruhg'a qarshi qo'yishni, ko'pchilikdan nimasi bilandir farqlanishni yaxshi ko'radi. O'zi uchun qimmatli bo'lgan maqsadlariga erishishda juda tirishqoq. Imtiyozli va salohiyatli bo'lishga intiladi. Tez-tez soxtaliklarga yo'l qo'yadi. Juda amaliyotchi.

**Korreksiya yo'llari.** O'zaro munosabatlarda, sabr bilan ta'sir etish kerak, aks holda qaysarligi tutib undagi salbiy xislatlar kuchliroq namoyon bo'lishi mumkin. /ayratini foydali ishlarga sarf qildirish, birinchi bo'lishga bo'lgan ishtiyoqini ijtimoiy ma'kul shaklda namoyon ettirish uchun sport yoki texnik mashg'ulotlarga jalb etish lozim. Estetik tarbiya berish maqsadga muvofiq. Kuchli etakchisi bo'lgan ijobiy ijtimoiy guruhlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq.

#### 21 - TIP E: 12-16; N: 8-12

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Juda g'ayratli, quvnoq. Hamma unga maftun. Bu tipdag'i o'smirlar boshqalar tomonidan omadli, baxtli hisoblanadi. Haqiqatdan ham ular ko'pincha juda iqtidorli bo'lishadi, fanlarni oson o'zlashtiradilar, artistlik mahoratiga egadir, charchoq

nimaligini bilmaydilar, tinimsiz harakatda, faoliyatda bo'ladilar. Biroq shu ijobjiy hislatlar salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Ularda kichkinalikdan «hamma narsa qo'llimdan keladi, qaerga qo'llimni uzatsam etadi» degan fikr va odad paydo bo'lishi mumkin. Natijada maqsadga erishish yo'lida jiddiy ish olib borishga o'rganmaydi. Har qanday narsadan osongina voz kechishadi, shu jumladan do'stlik aloqalarini ham uzishadi. Munosabatlari yuzaki. Juda past ijtimoiy ong sohibi.

**Korrekteziya yo'llari.** +at'iylilik va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lismeni talab qilish kerak. Jamoada etakchilik mavqeiga tavsiya etib bo'lmaydi. YAxshisi joriy tartibda vaqt-i-vaqti bilan biror narsani tashkil etish bilan bog'liq topshiriqlarni berish maqsadga muvofiq. Topshiriqlarning bajarilishini qattiq nazorat qilib turish kerak. Bu o'smir bilan biror jiddiyroq maqsadni rejalashtirgan ma'qul.

Masalan, chet tilini chuqur o'rganish. Buning uchun rejani bosqichlarga va muddatlarga bo'lib bajarilishini qattiq nazorat qilib borish kerak. Bu bir tomondan uni qat'iylikka o'rgatsa, ikkinchi tomondan izchillik va tartibi bilan ishlashtirishga malakasini shakllantiradi.

## 22 - TIP E: 8-12; N: 8-12

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Juda passiv-befarq. O'ziga ishonadi. Atrofidagilarga nisbatan qattiq talabchan. Kek saqlaydi, uni hafa qilganlarni unutmaydi. Ko'pincha passiv qaysarligini namoyon etadi. Juda sinchkov, mayda-chuydalarga e'tiborli. Mulonazali, sovuqqon. Birovning fikriga e'tiborsizlik bilan, befarq qaraydi. Sust, odatiy bo'lib qolgan, yaxshi tanish va bir hil qolipdagagi ishlarni afzal ko'radi. Nutqi yaxshi ifdalanganmagan, ta'sirchan emas. Estetik tushunchalari past.

**Korrekteziya yo'llari.** O'smirda go'yo u tarbiyachini (trenerni, o'qituvchini) qiziqtirib qolgandek fikr uyg'otish kerak. Kundalik hayotining ikir-chikirlari bilan, ahvoli va kayfiyati bilan qiziqish zarur.+unt bilan ijro etishni talab qiladigan jamoat ishlarnini (jurnal yuritish, tabelni hisoblash va hokazo) topshirish kerak. Ijrochilik mahoratini maqtash yaxshi samara beradi. Bo'sh vaqtida shug'ullanadigan mashg'ulotini tanlashga yordam berish kerak. Unga ko'proq guruh tarkibida emas, balki yakka holda bajariladigan sport yoki badiiy havaskorlik faoliyati mos keladi.

## 23 - TIP E: 16-20; N: 8-12

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Muloqotchan, faol, tashabbuskor, beriluvchan. Ayni vaqtida o'zini boshqara oladi. Mo'ljallagan maqsadiga

erishishni biladi. Izzattalab. Etakchilik qilishni va tashkilotchi bo'lishni yaxshi ko'radi. Atrofidagilarning hurmati va ishonchiga sazovor. Fe'li yumshoq, nozik didli, me'yorida jonsarak.

**Tuzatish yo'llari.** Etakchilik qilishga sharoit yaratish kerak. YAKKA tartibdagi va guruhdagi muammolarni echishda yordam berish kerak. Uning yuklamalari (majburiyatlar) – o'qish va jamoat ishlari – me'yordan oshib ketmasligini nazorat qilib turish lozim.

**24 - TIP** E: 12-16; N: 4-8

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Faol, vazmin tip. /ayratli. O'rtacha muloqotchan. Uncha ko'p bo'limgan do'stlariga bog'lanib qolgan. Tartibli. O'z oldiga maqsad qo'yishni va unga erishishni biladi. Raqobatga moyilligi yo'q. Ba'zida arazchi.

**Korreksiya yo'llari.** Atrofidagilarning samimy va xotirjam munosabatda bo'lishlarini afzal ko'radi. Undagi aniq ishchanlik aloqalarini jonlantirish kerak.

**25 - TIP** E: 8-12; N: 4-8

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Faol, ba'zan tez qizishib ketadi, ayrim hollarda beg'am-quvnoq. Deyarli hech qanday tashabbus ko'rsatmaydi, berilgan ko'rsatmalar bo'yicha ishlaydi. Ijtimoiy aloqalarda passiv. CHuqur hissiy kechinmalarga moyilligi yo'q. Bir hildagi hafsala bilan qilinadigan ishlarni afzal ko'radi.

**Korreksiya yo'llari.** U bilan tinch-ishchanlik munosabatlarini yo'lga qo'yan ma'qul. YAKKA tartibda bajariladigan ishlar va mashg'ulotlar mos keladi. Ma'muriy ishlarni yaxshi bajaradi.

**26 - TIP** E: 4-8; N: 8-12

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Tinch-xotirjam, o'zini bosib olgan, sabrli, sinchkov, hafsalali. Izzattalab. Maqsadga intiluvchan. +at'iy tamoyillar (printsiplar) va qarashlarga ega. Ayrim vaqtlarda arazchi.

**Korreksiya yo'llari.** Samimiy, ishonchli munosabatlarni, bir me'yorda xotirjam bajariladigan ishlarni yaxshi ko'radi. Oshnoga'ynigarchilik, tanish-bilishchilikka moyil emas. Sinfda tengdoshlari ichida tartibli, hafsalali ish qilishini, yaxshi ijrochilik qobiliyatini maqtash maqsadga muvofiq. O'z kuchiga ishonch hissiyotini kuchaytirish kerak.

**27 - TIP** E: 4-8; N: 12-16

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Vazmin-melanxolik. Nozik tabiatli. Bog'lanuvchan. Ishonchli, xotirjam va ortiqcha oshkor etilmaydigan munosabatlarni qadrlaydi. Xazil-mutoyibani yaxshi

ko'radi. Optimist. Ba'zan vahimaga tushadi, ba'zan tushunlikka tushadiyu, biroq ko'pincha xotirjam-o'ychan bo'lib yuradi.

**Korreksiya yo'llari.** Faol-xotirjam ishlash sharoitini yaratib berish kerak. +at'iy reglament (qolip, me'yor) bo'yicha ishlay olmaydi. Unga estetik va badiiy adabiyotlar bilan bog'liq mashg'ulotlarni tavsiya etish mumkin.

**28 - TIP E: 8-12; N: 16-20**

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Melanxolik, izzattalab, tirishqoq, jiddiy. Ba'zida tushkunlik-xavotirlanish kayfiyatiga tushadi. Juda ozchilik bilan do'stlashadi. Arazchi emas, ammo ba'zan noxush fikrlarga beriluvchan ba'zan sust. +at'iy masalalarni echishda mustaqil, ammo hissiy hayotida yaqinlariga bog'lanib qolgan.

**Korreksiya yo'llari.** O'ziga-o'zi baho berish qobiliyatini ko'tarish, o'ziga ishonch hissini kuchaytirish kerak.

**29 - TIP E: 12-16; N: 16-20**

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Atrofidagilarga qattiq talabchan, qaysar, mag'rur, juda izzat talab. /ayratli, muloqotchan, kayfiyati ko'pincha jangovor holatda. Muvaffaqiyatsizlik va omadsizliklarini yashiradi. Ko'pchilikning nazarida bo'lishni yoqtiradi. Sovuqqon.

**Korreksiya yo'llari.** Munosabatlarni o'zaro hurmat, qattiq talabchanlik asosida qurish kerak. Agar arazchi bo'lsa uning kamchililaridan xazil - mutoyiba bilangina kulish mumkin.

**30 - TIP E: 16-20; N: 12-16**

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Mag'rur, peshqadamlikka intiladi, kekchi. Hamma narsada birinchi bo'lishni yoqtiradi. /ayratli, tirishqoq. Xotirjam, mulohazali. Tavakkalchilikni yoqtiradi, natijaga erishish uchun hech narsadan qaytmaydi. Artistlik xususiyati bor, lekin bu xususiyati quruq, jonsiz namoyon bo'ladi.

**Korreksiya yo'llari.** Manmanlik qilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ijobiy harakatlarini qo'llab-quvvatlash, etakchilik qilishida yordam berish, lekin buyruqbozlik qilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Asabiylashgan va g'azabnok holatlarini neytrallash kerak. Ijtimoiy anglash qobiliyatini o'stirish lozim.

**31 - TIP E: 8-12; N: 12-16**

**Namoyon bo'lish xususiyatlari.** Tortinchoq, xasadchi emas, mustaqillikka intiladi, bog'lanuvchan. Xayrirox. YAqin kishilariga nisbatan kuzatuvchan, hazilkash. CHuqur, samimiylar va o'zaro ishonchli munosabatlarga moyil. Tavakkalchilikdan, xavfli holatlardan qochadi. Tashqaridan tazyiq bilan o'tkazilgan sur'atni, jadallikni ko'tarmaydi.

Ba'zida tez qaror qabul qiladi. Tez-tez qilgan ishlaridan afsuslanib yuradi. Ishi yurishmasa faqat o'zini ayblaydi.

**Korreksiya yo'llari.** Xotirjam, xayrioxlik vaziyatini yaratish kerak. Faoliyat, ish bilan bog'lik masalalarini hal qilishga jalb etish kerak. Ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, birorta umumiylardan (seminar, konferentsiya, kechalar, mushoira) qatnashtirish lozim.

**32 - TIP** E: 12-16; N: 12-16

**Namoyon bo'lismi xususiyatlari.** Izzattalab, omadsizliklar o'ziga bo'lgan ishonchini susaytirmaydi. Arazchi. Kekchi. /ayratli. Tirishqoq. Maqsadga intiluvchan. Munozara, tortishuvlarga moyil. Agar noxaq bo'lsa ham yon bosmaydi. Vijdon azobidan qiyalmaydi. Munosabatlarda hamdarlikni namoyon etmaydi. Faqat bilimdonlik va habardorlikni qadrlaydi. Hissiy cheklangan tip.

**Korreksiya yo'llari.** Ziddiyatli, munozarali-tortishuv holatlarida tarafini olmaslik kerak. Unga izzattalabligi orqali ta'sir o'tkazish kerak. Tenglik asosida munosabatda bo'lismi, ijtimoiy ongini rivojlantirish lozim.

Mazkur metodika 12-17 yoshli o'smirlar uchun mo'ljallangan.

### 13-laboratoriya mashg'uloti

**Mavzu:** Xarakter

**Maqsad:** Talabalarning xarakteri va guruhning tarbiyalanganlik sifatlarining darajasini aniqlash.

**Jihoz:** Tarbiyalanganlik sifatlarining mezonlari.Javob varaqalari.

**Tajribaning borishi.** Javob varaqasining belgilangan qismiga quyidagi har bir ko'rsatkich chegarasidagi baho mezonlaridan foydalangan holda o'zingizni tarbiyalanganlik darajangizga qarab o'zingizga samimiylar baho berishingiz kerak. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash vaqtida uch xil: yuqori, o'rta va past baholardan foydalaniш lozim.YAni javob varaqasida "+" belgisi bilan belgilang.

U yoki bu ko'rsatkich bo'yicha sizda baholash mezonlarining barchasi mavjud bo'lgan hollarda unga yuqori baho qo'yish nazarda tutiladi. Sanab o'tilgan ko'rsatkichlarning yarmi mavjud bo'lgan vaqtida o'rta baho, o'sha mezonlarning yarmidan kamroq qismi mavjud bo'lganida — past baho qo'yish kerak.

**Vatanparvarlik:** Vatan tarixini, mamlakatda sodir bo'layotgan hozirgi eng muhim voqeа-hodisalarni bilib turish; ona-Vatan

istiqboli bilan qiziqish; o'z Vatani bilan, uning buyuk kishilari bilan faxrlanish tuyg'usi; umum foydasi uchun qilinayotgan mehnatda ixtiyoriy ishtirok etish; tabiatni, xalq mulkini ehtiyyot qilib, asrabavaylash; Vatanni himoya qilishga aktiv tayyorlanish.

**Internatsionalizm:** o'zga xalqlarning madaniyati va san'atiga qiziqish; internatsional xarakterdagi tadbirlarda ixtiyoriy ishtirok etish; o'zga mamlakatlarning mehnatkashlariga qardoshlarcha yordam tadbirlarida qo'ldan kelgancha qatnashish.

**Jamoachilik:** o'z jamoai amalga oshirayotgan barcha ishlarda faol ishtirok etish; o'rtoqlariga beg'araz yordam ko'rsatishni odat qilish; jamoa qabul qilgan qarorlarni bajarish; o'rtoqlariga talabchan bo'lism; ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni birga qo'shib olib borish; o'z jamoaining sharafi uchun kurashish.

**Insonparvarlik:** mehribon bo'lism: kichkintoylarga g'amxo'rlik qilish; kattalarga hurmat ko'rsatish; yordamga muhtoj kishilarga ixtiyoriy ravishda ko'maklashish; jonivorlarga mehr-shafqatli bo'lism va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilish; insonparvarlikka qarshi har qanday xatti-harakatlarga murosasiz bo'lism.

**Halollik:** rostgo'ylik; so'z bilan ishning birligi; to'g'ri so'zlik; o'z xatolari va qilmishlarini ixtiyoriy tan olish.

**Mehnatga halol munosabatda bo'lism:** sidqidildan o'qish; har qanday zarur ishni o'z vaqtida bajarish, o'z mehnat natijalarining yuqori sifat darajasini ta'minlash; uy-ro'zg'or ishlarida muntazam yordam berish; mehnat faoliyatining muayyan bir sohasiga qiziqish.

**Intizomlilik:** qoidalarga har kuni va hamma joyda rioya qilish; katta kishilar buyurgan ishlarni tez va aniq bajarish; jamoada intizomning yuksak darajada bo'lishi uchun kurashish; O'zbekiston davlati qonunlarini bilish va ularga rioya qilish.

**Mas'uliyat:** o'z vazifalarini sidqidildan ado etish; olingen majburiyatlarni o'z vaqtida aniq bajarish; boshlangan ishni oxiriga etkazishni odat qilish; o'z qilmishlari va o'rtoqlarining qilmishlari uchun javob berishga tayyor turish.

**Printsipiallik:** qarashlar va e'tiqodlarning barqarorligi; o'z fikr-mulohazalarini ochiqdan-ochiq aytish va o'z fikrini himoya qilish odati, o'z-o'zini tanqid qila olish; o'rtoqlarining xatti-harakatlariga ob'ektiv baho berish qobiliyati; jamoat tartiblariga zid bo'lgan xatti-harakatlarga nisbatan murosasiz bo'lism.

**Aniq maqsadga intilish:** konkret katta ishlarni bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yish, shu maqsadni amalga oshirish uchun kurashda qat'iyatli bo'lisch; o'z idealiga sodiq qolish.

**Faollik:** guruh va ta'lim maskanining ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish: tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini ko'rsatish; optimist bo'lisch; kamchiliklarga o'tmisht sarqitlariga qarshi kurash olib borish.

**Qiziquvchanlik:** o'qimishli bo'lisch: bilim doirasining kengligi; fan va texnikaning turli sohalarida o'z bilimini muntazam oshirib borish; darslarni qoldirmay qatnashib borish.

**Estetik kamolat:** ozoda kiyinib yurish; yuksak nutq madaniyati va namunali xulq-atvorga ega bo'lisch; qo'shiq ayta olish; raqsga chiroyli tusha olish mahoratiga ega bo'lisch; teatrлarga, ko'rgazmalarga, kontsertlar va hokazolarga muntazam borib turish; adabiyot va san`atning mashhur asarlarini bilish va tushunish, go'-zallik yaratishga harakat qilish.

**Jismoniy kamolotga intilish:** xushbichim qomatga ega bo'lisch; har kuni ertalab jismoniy mashqlar qilishga odatlanish; sport sektsiyasida muntazam shug'ullanish; jismoniy tarbiya darslariga aktiv qatnashib, uni yaxshi o'zlashtirish.

Tarbiyalanganlik sifatlari	Kamolot darajasi		
	Yuqori	O'rta	Past
1. Vatanparvarlik			
2. Internatsinalizm			
3. Jamoachilik			
4. Insonparvarlik			
5. Halollik			
6. Mehnatga halol munosabatda bo'lisch			
7. Intizomlilik			
8. Ma'suliyat			
9. Printsiplilik			
10. Aniq maqsadga intilish			
11. Faollik			
12. Qiziquvchanlik			
13. Estetik kamolot			
14. Jismoniy kamolotga intilish			

**Natijalar tahlili.** Topshiriqlar bajarilgach, talabalarga guruhdagilarning baholarini ko'rsatib o'tilgan ko'rsatkichlar bo'yicha umumiy miqdorini hisoblab chiqish taklif qilinadi hamda hisoblash natijalari jadvalga yozib qo'yiladi.

Mana shu jadvaldag'i ma'lumotlar asosida grupperning umumiy tarbiyalanganlik darajasi to'g'risida xulosa chiqariladi (bunda talabalar guruxining tarbiyalanganlik darajasi to'g'risidagi xulosasi namuna o'rniда xizmat qiladi. O'qituvchi shunga qarab guruxning tarbiyalanganlik darajasiga baho qo'yomog'i kerak).

No	Otasining ismi	Familiyasi	Ismi	Vatamparvarlik	Internatsional	Jamoachilik	Insonparvarlik	Xalollik	Mexratga xalol	Intizomilik	Mas'uliyat	Printsipiallik	Aniq maqsadga	Faoliik	Qiziquvchanlik	Estetik kamolat	Jismoniy kamolat
1																	
2																	
3																	
4																	
5																	
6																	
7																	

Kondashning egotsetrism indeksi testi. Test mezoni.

O'smir va o'spirin shaxsi uning ijtimoiy hayotda mifik jahonida tengqurlari bilan shaxslararo munosabatlar davrasidagi o'qish va turmush sharoitidagi o'zgarishlar ta'siri ostida tarkib topa boshlaydi. Mehnat faoliyatida, ta'lim-tarbiya jarayonida aqliy va ahloqiy jihatdan o'sishida o'ziga xos o'zgarishlar, yangi xislat va fazilatlar namoyon bo'layotganligi kuzatiladi.

O'smir va o'spirin o'z ma'naviyati ruhiyati xususiyalarini to'laroq tasavvur eta olsa ham, ularga oqilona baho berishda qator kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Bular natijasida u o'z xususiyatlari ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrish illatiga duchor bo'ladi. Bu hol, o'z navbatida sinf va pedagoglar jamoalari a'zolariga nisbatan g'ayritabiyy munosabatni vujudga keltiradi. SHunday o'smir va o'spirinlar ham borki, ular o'z xatti-xarakati, aqliy imkoniyati, qiziqishiga etarli baho bermaydilar hamda ko'pchilik orasida o'zlarini kamtarona tutishga intilmaydilar.

Psiyologiya fanida shaxsning bunday individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan bir qancha usullar (metodikalar) mavjuddir.

Quyida biz o'smir va o'spirinlarda egotsentrizmni\* aniqlash metodikasining soddalashtirilgan variantini tavsiya etmoqdamiz. Bu metodika ma'lum bir jihatdan ruhiy bezovtalanish metodikasining davomi sifatida qaralishi mumkin.

\*Egotsentrizm - ( yunoncha ego - men , sentr - markaz ) -yani egoizmning eng tuban darajasi; o'z shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishga kuchli hirs qo'yib jamiyat manfaatlarini xatto mensimaslikdan iborat juda past xarakter hislati.

**Ko'rsatma:** Test 40 ta tugallanmagan gaplardan iboratdir.

Ularning har birini shunday to'ldirish lozimki oqibatda to'liq bir tugallangan fikmi ifodalovchi gap hosil bo'lsin.Bu tugallanmagan gaplarni to'ldirish uchun fikringizga birinchi bo'lib kelgan gapning davomini zudlik bilan yozib qo'yish kerak.Uzoq o'ylanib o'tirmang.Tez ishlashga xarakat qiling.Barcha savollarga javob bo'lishi shart.

1. Bunday vaziyatda \_\_\_\_\_
2. Hammasidan osoni \_\_\_\_\_
3. Shunga qaramay \_\_\_\_\_
4. Qanchalik uzoq bo'lsa \_\_\_\_\_
5. \_\_\_\_\_ ga qaraganda \_\_\_\_\_
6. Har bir \_\_\_\_\_
7. Afsuski \_\_\_\_\_
8. Natijada \_\_\_\_\_
9. Agar \_\_\_\_\_
10. Bundan bir necha yil oldin \_\_\_\_\_
11. Eng muximi shuki \_\_\_\_\_
12. Aslida esa \_\_\_\_\_
13. Faqat \_\_\_\_\_
14. Xaqiqiy muammo shundaki \_\_\_\_\_
15. \_\_\_\_\_ noto'g'ri \_\_\_\_\_
  
16. Shunday kun keladiki \_\_\_\_\_
17. Eng katta \_\_\_\_\_
18. Hech qachon \_\_\_\_\_
19. Unda \_\_\_\_\_
20. \_\_\_\_\_ bo'lishi mumkin emas.

21. Eng asosiysi \_\_\_\_\_  
 22. Ba'zan \_\_\_\_\_  
 23. O'n ikki yildan so'ng \_\_\_\_\_  
 24. Oldin (o'tmishda) \_\_\_\_\_  
 25. Gap shundaki \_\_\_\_\_  
 26. Eng a'losi \_\_\_\_\_  
 27. Hozirgi vaqtida \_\_\_\_\_  
 28. \_\_\_\_\_ e'tiborga olib \_\_\_\_\_  
 29. Agar u bo'lmaganda edi \_\_\_\_\_  
 30. Har doim \_\_\_\_\_  
 31. Ehtimol \_\_\_\_\_  
 32. U holda \_\_\_\_\_  
 33. Odatda \_\_\_\_\_  
 34. Agar, hatto \_\_\_\_\_ bo'lganda ham.  
 35. U vaqtgacha \_\_\_\_\_  
 36. \_\_\_\_\_ uchun shart.  
 37. Hammasidan ko'pi \_\_\_\_\_  
 38. Hisobda \_\_\_\_\_  
 39. Yaqin vaqtlardan buyon \_\_\_\_\_  
 40. Faqat o'sha vaqtidan boshlab \_\_\_\_\_

### Egotsentrik yo'nalganlik darajasini aniqlash mezoni

Sinflar	jinsi	Past	O'rta	Yuqori
5 – sınıf	o'g'il	0 – 9	10 – 25	26 – 40
	qiz	0 – 8	9 – 24	25 – 40
6 – sınıf	o'g'il	0 – 11	12 – 27	28 – 40
	qiz	0 – 10	11 – 26	27 – 40
7 - sınıf	o'g'il	0 – 13	14 – 28	29 – 40
	qiz	0 – 14	15 – 26	28 – 40
8 - sınıf	o'g'il	0 – 12	13 – 27	28 – 40
	qiz	0 – 13	14 – 25	26 – 40
9 – sınıf	o'g'il	0 – 8	9 – 22	23 – 40
	qiz	0 – 9	10 – 23	24 – 40
KHK 1-2 kurs	o'g'il	0 – 7	8 – 20	21 – 40
	qiz	0 – 8	9 – 23	24 – 40
KHK 3 kurs	o'g'il	0 – 7	8 – 20	21 – 40
	qiz	0 – 7	8 – 21	22 – 40

## Natijalar tahlili.

Natijalarni qayta ishlashning maqsadi - sinaluvchi shaxsning egotsentrik yoki noegotsentrik yo'nalganligi haqidagi egotsentrizm indektsini aniqlashdir.

Agar sinaluvchi topshiriqni hammasini bajargan bo'lsa natijalarni qayta ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi. SHuning uchun test o'tkazish jarayonida o'quvchilar barcha gaplarni tugatishga erishishi muhimdir. Test savolnomasida 10 va undan ortiq tugallanmagan gaplar qolgan bo'lsa bu test qayta ishlanmaydi va tahlil ham qilinmaydi. Egotsentrizm indektsi sinaluvchining o'zi xaqidagi ma'lumotlarni aniqlash orqali belgilanadi. Bu ma'lumotlar birliqdagi birinchi shaxs olmoshlarining barcha ko'rinishlari «men», «mening», «menga», «menda», «men bilan» va xokozolar hisobga olinadi. Sinaluvchining o'zi haqidagi ma'lumotlarni oxirigacha tugallanmagan lekin mazmunida yuqorida keltirilgandek olmosh-lar ifodalangan gaplarni ham beradi. Bunday gaplarda shu olmoshlarning o'zi bo'lmasligi mumkin lekin ularning mazmuniga ko'ra gap birlikdagi birinchi shaxs feli haqida borayotgani sezilib turishi mumkin. SHu yuqorida qayd etilgan gaplarning miqdori egotsentrizm indeksi bo'lib xizmat qiladi.

ILLOVA: Egotsentrik yo'nalganlik bolaning bilish, emotsiyal (hissiy) va xulqiy jihatlarida namoyon bo'ladi. Bunday yo'nalishga ega bo'lgan shaxs ayrim bilish ob'ektlariga nisbatan bo'lgan o'z munosabatlarini o'zgartirishda, boshqa odamlar kechimnalari tushunishda (tushina bilmaslikda), emotsiyal (hissiy) hozirjavoblikning yo'qligida, boshqa odamlarning nuqtai nazarlarini hisobga ola bilmaslikda va ularni o'zining shaxsiy nuqtai nazari bilan muvosiqlashtira olmaslikda qiyinchiliklarga duch keladi. O'smirlik yoshida shaxsning egotsentrik yo'nalganligining shakllanish va mustaxkamlanish ehtimoliyuqori bo'ladi ya'ni bunday xislatlar shu yoshda ko'proq shakllanadi. Test o'tkazish davomida quyidagi qoidaga amal qilish kerak:

- a) sinaluvchilarga ko'rsatmadan boshqa biroi nima tushuntirib berish yoki ularning fikr mulohazalariga baho berish va o'z munosabatini bildirish qatiyan man etiladi,
- b) tadqiqotning haqiqiy maqsadini e'lon (fosh) qilinmasligi shart.

## 14-laboratoriya mashg'uloti

**Mavzu** Qobiliyat

**Maqsad:** Shaxsning tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash.

**Jihoz:** Tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash testi

Ushbu taklif etilayotgan test sinaluvchining tashkilotchilik qobiliyatini, ya'ni odamlarga faol ta'sir eta olish malakasini aniqlash imkoniyatini beradi. Buning uchun quyidagi keltirilgan savollarga «ha» yoki «yo'q» deb javob qaytaring. Javob berar ekansiz, yaqqol vaziyatlarda o'zingizni qanday tutishingizni, xulqingizni ro'y-rost idrok etishga (tiklashga) harakat qiling.

1. Sizda o'rtoklaringizni o'z tomoningizga og'dirib olish hollari tez-tez uchrab turadimi?

2. Keskin vaziyatlarda o'zingizni yaxshi tutib, vaziyatni to'g'ri hal qila olasizmi?

3. Sizga jamoatchilik ishlari yoqadimi?

4. Agar niyatlariningizni amalga oshirishda ayrim halaqt qiluvchi vaziyatlar, holatlar yuzaga kelib qolsa, Siz ulardan osongina voz kechasizmi?

5. Siz turli xil o'yinlar, ko'ngil xushliklarni tashkil qilish yoki o'ylab topishni yoqtirasizmi?

6. Bugun bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni boshqa kunga qoldirish hollari sizda tez-tez uchrab turadimi?

7. Siz do'stlaringiz bilan fikringizga mos ravishda ish ko'rishga intilasizmi?

8. Sizda do'stlaringiz bilan ular o'z va'dalari bilan majburiyatlarini vazifalarini bajarmaganliklari tufayli nizolar bo'lmaydi, shu rostmi?

9. Muhim ishlarni hal qilishda tsz-tez tashabbuskorlik ko'rsatasizmi?

10. Notanish holatlarda siz to'g'ri (yaxshi) yo'l tuta olmaysiz, shu chindanmi?

11. Agarda boshlagan ishingiz yakunlay olmasangiz, bundan jaxlingiz chiqadimi?

12. Siz do'stlaringiz bilai tez-tez muloqotda bo'lishda toliqasizbunitasdijqlaysizmi?

13. O'rtoqlaringizga taalluqli bo'lgan masalalarni hal etishda tez-tez tashabbuskormisiz?

14. Siz kamdan-kam o'zingizning haqligizingizni isbotlashga intilasiz, shuni tasdiqlaysizmi?

15. o'z o'quv yurtingizning, ishxonangizning tashkiliy ishlarida qatnashasizmi?

16. Agar, sizning fikringiz yoki qaroringiz o'rtoqlaringiz tomonidan birdaniga qabul qilinmasa, siz o'z fikringizda turib olishga harakat qilasiz, shundaymi?

17. O'rtoqlaringiz uchun turli xil tadbir (marosimlarni) tashkil qilishga bajonidil kirishasizmi?

18. Siz biron-bir ishning bitirilishi lozim bo'lgan (ishchan) uchrashuvlarga tez-tez kechikib kelasizmi?

19. Siz tez-tez o'rtoqlaringiz diqqat markazida bo'lib turasizmi?

20. Siz o'z o'rtoqlaringizning katta guruhida, jamoasida o'zingizni juda ishonchli tuta olmaysiz, shu chindanmi?

## Natijalar tahlili

Taklif etilgan savollarning hammasiga javob berib bo'lganidan so'ng, olgan ballaringiz yig'indisini xisoblab chiqing. Javoblarni baxolashda shuni nazarda tutingki, toq savollarga berilgan har bir «Ha» javobingiz va just savollarga bergan har bir “Yo'q” javobingiz bir ball bilan baholanadi.

Bunda yig'ilgan ballarning 15 ball va undan ko'p bo'lishi tashkilotchilik qobiliyatining yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

13-14 ballar o'rtacha.

13 balldan kam bo'lsa, tashkilotchilik qobiliyatini past darajada ekanligini bildiradi.

Agar siz tashkilotchilik qobiliyatizingiz darajasi pastligi uchun xafa bo'limgan, agarda uning yukori darajasini xohlasangiz siz o'zingizda tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantira olishingaz mumkin.

### Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qibiliyatlarini

#### o'rGANISH

**Kerakli jihozlar.** Tadqiqotni o'tkazish uchun savolnoma va javob varaqasini tayyorlash kerak. Tadqiqotni individual va guruhda o'tkazish mumkin.

**Tajribaning borishi.** Tekshiriluvchilarga javob varaqalarini tarqatib bo'lgach ko'rsatmani berish kerak.

“Savolnomada keltirilgan tasdiqlarni yaxshilab o'qib va bu tasdiqlarga rozi bo'lsangiz «+» belgisini, rozi bo'lmasangiz «-» belgisini qo'ying. Har bir detal ustida uzoq o'ylamaslik, aniq holatlarni ko'z oldingizga keltiring. Javob uchun ko'p vaqt sarflamang, miyangizga kelgan birinchi tabiiy javob haqiqiy javobdir. Savollarni qoldirmasdan, tartibi bilan to'g'ri va samimiy javob bering.

#### Savolnoma

1. Har doim muloqotda bo'lib turadigan do'stlaringiz ko'pmi?

2. Do'stlaringizni ko'pchiligin fikringizni qabul qilishga og'dirib olasizmi?

3. Do'stlaringizdan biri sizni ranjitsa, uzoq vaqt hafa bo'lib yurasizmi?

4. Hosil bo'lgan keskin vaziyatda har doim ham yo'l topishga qiynalasizmi?

5. Har xil kishilar bilan tanishishga sizda intilish bormi?

6. Jamoat ishlari bilan shug'ullanish sizga yoqadimi?

7. Sizga odamlar ichida bo'lishdan ko'ra kitob yoki boshqa ishlar bilan vaqt o'tkazish yoqadimi?

8.Ko'zlagan maqsadlaringizni amalga oshirishda to'siq bo'lsa, siz ulardan osongina chekinasizmi?

9.O'zingizdan katta yoshdag'i kishilar bilan osongina muomalaga o'ta olasizmi?

10.Siz o'z do'stlaringiz bilan qiziqarli o'yinlar va vaqt-xushlik o'ylab chiqish va tashkil qilishni yaxshi ko'rasizmi?

11.Sizga yangi kompaniyaga kirishib ketish qiyinmi?

12. Bugungi qiladigan ishlarni boshqa kunlarga tez-tez qoldirib turasizmi?

13. Notanish odamlar bilan muammoga kirishiz sizga oson bo'ladimi.

14 Do'stlaringiz sizni fikringiz bilan ish tutishlariga intilasizmi?

15.Yangi jamoaga o'rganish sizga qiyinmi?

16.Do'stlaringiz o'ziga olgan majburiyatlarni bajarishmasa, sizda ular bilan kelishmovchilik chiqmasligi rostmi?

17.Qulay vaziyat bo'lib qolsa siz yangi kishilar bilan tanishishga va suhbatlashishga intilasizmi?

18. Muhim ishlarni bajarishda tashabbus ko'rsatishnini ko'pincha o'zingizni qo'lingizga olasizmi?

19.Atroftagi odamlar sizni bezovta qiladimi va siz yolg'iz bo'lishni istaysizmi?

20. Siz noma'qul vaziyatda yaxshi tushunmoqlingiz rostmi ?

21. Sizga har doim odamlar ichida bo'lish yoqadimi?

22. Boshlagan ishingizni bitira olmasangiz bezovta bo'lasizmi?

23. YAxshi odamlar bilan tanishayotganda o'zingizda qiyinchilik hayajon, tortinish xis etasizmi?

24. Do'stlaringiz bilan tez-tez bo'lgan muloqatda toliqasizmi?

25.Jamoa o'yinlarda ishtirok etishni yaxshi qo'rasizmi?

26. Do'stlaringiz tegishli bo'lgan muamolarda echish uchun tez-tez o'z tashabbusingizni ko'rsata olasizmi?

27 Siz yaxshi tanimagan odamlar ichida o'zingizni erkin tutolmasligingiz rostmi?

28. Siz o'z haqoniyligizni isbotlash uchun kamdan-kam intilishingiz rostmi?

29.YAxshi tanimagan kompaniyaga jonlanish qiritish, siz uchun uncha qiyin emas deb xisoblaysizmi?

30. Siz jamoat ishlariiga qatnashasizmi?

31.Siz o'z tanishlaringizni sonini bir necha odamlar bilan cheklatishga intilasizmi?

32. Agar fikringizni do'stlaringiz birdangina kabul qilmasa siz fikringizni himoya qilish uchun intilmasligingiz rostmi?

33. Tanimagan kompaniyaga tushib qolsangiz, o'zingizni erkin tutasizmi?

34. Siz xar hil tadbirlar tashkil qilishga xoxish bilan kirishasizmi?

35. Katta gurux oldida so'zlaganda o'zingizni dadil va bosiq tutmasligingiz rostmi?

36. Siz ishga doir uchrashuvlarga tez-tez kech qolib turasizmi?

37. Do'stlaringiz ko'pligi rostmi?

38. Do'stlaringiz ichida e'tibor markazida tez-tez bo'lib turasizmi?

39. YAxshi tanimagan odamlar bilan muloqada bo'lganda siz o'zingizni tez-tez noqulay va xijolatli tutasizmi?

40. Do'stlaringiz ishtirokidagi katta davralarda o'zingizni uncha dadil his qila olmasligingiz rostmi?

### DESHIFRATOR

#### Kommunikativ qobiliyatlarni aniqlash uchun

1	+	11	-	21	+	31	-
3	-	13	+	23	-	33	+
5	+	15	-	25	+	35	-
7	-	17	+	27	-	37	+
9	+	19	-	29	+	39	-

### DESHIFRATOR

#### Tashkilotchilik qobiliyatlarni aniqlash uchun

2	+	12	-	22	+	32	-
4	-	14	+	24	-	34	+
6	+	16	-	26	+	36	-
8	-	18	+	28	-	38	+
10	+	20	-	30	+	40	-

### Natijalarni qayta ishlash

1. Tekshiruvlarni javoblarini deshifrator bilan solishtirib, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlariga to'g'ri kelganini hisoblab chiqing.

2. Kommunikativ ( $K_k$ ) va tashkilotchilik ( $K_t$ ) qobiliyatlarni baholash koeffitsientini quyidagi formula orqali hisoblab chiqing:

$$(K_k) * \text{to'g'ri kelgan javoblarning soni} X 0,05$$

$$(K_t) * \text{to'g'ri kelgan javoblarning soni} X 0,05$$

Masalan: tekshiruvchini kommunikativ qobiliyatları deshiffrator bilan to'g'ri kelgan javoblar soni 18, tashkilotchilik qobiliyatları esa deshiffrator bilan to'g'ri kelgan javoblar soni 15. Demak, kommunikativ qobiliyatını baholash koeffitsienti quyidagiga teng ( $K_k$ ) $*18[0,05*0,90, tashkilotchilik qobiliyatları baholash koeffitsienti ( $K_t$ ) $*15[0,05*0,75. SHu metodika orqali olingan ko'rsatkichlar 0-1 o'zgarishi mumkin. 1-ga yaqin ko'rsatkichlar kommunikativ yoki tashkilotchilik qobiliyatlarını yuqori darajasini bildiradi.$$

0-ga yaqin ko'rsatkichlar past darajasini bildiradi.

Ko'rsatkichlarni sifatlari baholash uchun olingan koefitsientlarni baholash bilan solishtirib chiqish kerak.

### **Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarni baholash shkalasi**

$K_k$	$K_t$	Baho	Qobiliyatlarning ifodalanish darajasi
0,10-0,45	0,20-0,55	1	Past
0,46-0,55	0,56-0,65	2	O'rtadan past
0,56-0,65	0,66-0,70	3	O'rta
0,66-0,75	0,71-0,80	4	YUqori
0,76-1,00	0,81-1,00	5	Juda yuqori

### **Natijalarni tahil qilishda quyidagi parametrlarni ko'zda tutish kerak:**

1. 1 baho olgan tekshiruvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatları past darajasi bilan ta'riflanadi.

2. 2 baho olgan tekshiruvchilarini kommunikativ va tashkilotchilik qibiliyatları o'rtadan pastda ta'riflanadi. Ular muloqotga intilishmaydi, ya'ni kompaniyada(jamoada) o'zlarini erkin tutolmaydi, vaqtini yolg'iz o'tkazishni afzal ko'radi, o'zlarini tanishuvlarini chegaralab qo'yadi, odamlar bilan muloqot, auditoriya oldida gapirishga qynaladi, o'z fikrini himoya qilolmaydi, ko'p ishlarda mustaqil qaror qabul qilishda o'zlarini chetga tortishni afzal ko'radi.

3. 3 baho olgan tekshiruvchilarini kommunikativ va tashkilotchilik qibiliyatları o'rta darajalik deb hisoblanadi. Ular odamlar bilan muloqot o'rnatishga intiladi, o'zlarini tanishuvlarini chegaralamaydi, o'z fikrini himoya qila oladi, ishlarini rejelaydi, lekin qobiliyatlarını yuqori turg'unlik bilan ta'riflab bo'lmaydi. Bu guruh kommunikativ va tashkilotchilik qibiliyatlarını rivojlantirish uchun katta va jiddiy tarbiyaviy ishlar olib borish kerak.

4. 4 baho tekshiruvchilarini kommunikativ va tashkilotchilik qibiliyatları yuqori darajalik deb hisoblanadi. Ular yangi vaziyatlarda

o'zini yo'qatmaydi, do'stlarni tez topadi, tanishuvlar darajasini har doim kengaytirishga intilishadi, jamoat ishlari bilan shug'ullanadi, yaqinlari va do'stlariga yordam beradi. Jamoat tadbirlarini tashkil qilishiga qatnashadi, og'ir vaziyatda mustaqil qarorlar qabul qila oladi. Aytilib o'tganlarni ular majburiy emas, o'z ichki intilishi bilan qilishadi.

5. 5 ba'ho olgan tekshiruvchilarni kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatları juda ham yuqori darajalik deb hisoblanadi.Ular muloqat va tashkiliy faoliyatiga katta ehtiyoj his etishadi,shunga faol intilishadi, og'ir vaziyatlarda tez yo'l topa oladi.YAngi jamoada o'zini erkin tutishadi, tashabbuskor, muhim ishda yoki murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishni afzal ko'radi, o'zlarini fikrini himoya qila olishadi, do'stlari ularni fikrlari bilan ish tutishlariga intiladi, notanish kompaniyaga jonlanish kirgiza olishadi, har xil o'yinlar tashkil qilishni yaxshi ko'rishadi. O'zlarini kommunikativ va tashkilotchilik faoliyatlarini qoniqtiradigan ishlarni izlab yurishadi.

### **Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar**

1. Davletshin.M.G. Umumiy psixologiya. T. 2000
2. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T., 2008
- 3..Karimova V. Psixologiya T. Sharq 2002
4. Klimov E.A. «Obshaya psixologiya» M.: SPb 2001.
5. Nemov R. S. «Psixologiya» T. I.M. 1998.
6. Petrovskiy A. Umumiy psixologiya T.1992
7. Haydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: TDPU 2010
8. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar A.I.Shcherbakov tahriri ostida T.1994

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Shakirova G.M. "Obshaya psixologiya" T.: TGPU 2000.
2. E.A.Klimov "Psixologiya". Moskva-2000
3. Sapogova E.E. "Psixologiya razvitiya cheloveka" M., 2001.
4. O'zbekiston Respublikasi psixologlari T-2001 y
5. Ibragimova X.I. va boshqalar "Pedagogik psixologiya" T., 2009
6. G'oziev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. T-2002.
7. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar N. 2012

